

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI

“KASBIY – PEDAGOGIK TA‘LIM” FAKULTETI

“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA” KAFEDRASI

“Madaniy-marifiy faoliyat va sog'lom mafkurali insonni tarbiyalash”

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: “kasbiy – ta’lim” ta’lim yo‘nalishi

bitiruvchisi 4–kurs talabasi TASHMATOVA K

Ilmiy rahbar: t.f.d professor A.A. Mavrulov

Kafedra mudiri: p.f.n dotsent Z.H.Qosimova.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi kafedraning “_____” _____ 2012 yildagi _____ sonli
yig‘ilishida muhokamadan o‘tib himoyaga tavsiya etilgan.

TOSHKENT – 2012.

Mavzu: Madaniy-marifiy faoliyat va sog'lom mafkurali insonni tarbiyalash.

Reja:

Kirish.

I bob. Madaniy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etish va uning shaxs mafkurasini shakllantirishdagi o'rni.

1.1. Madaniy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning meyoriy asoslari.

1.2. Sog'lom mafkurali inson shaxsiga qo'yiladigan talablar tasnifi.

II bob. Shaxs mafkurasini to'g'ri shakllantirish va tarbiyalashning pedagogik talqini.

2.1. Jamiyatdagi turli mafkuraviy taxdidlarning shaxs taraqqiyotiga ta'siri.

2.2. Ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashning pedagogik mezonlari.

Xulosa.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Insoniyat tarixiy tajribasining ko'rsatishicha, biron-bir jamiyat madaniy-ma'naviy, ma'rifiy imkoniyatlarni, odamlar ongi va qalbida ma'naviy axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay va mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Yuksak madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat har qanday davlat va jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. Madaniy-ma'naviy jihatdan qashshoq bo'lgan mamlakat buyuk porloq istiqbolga ega bo'lolmaydi. Madaniy qashshoqlik, ma'naviy inqiroz, insonning intellektual noyetukligi va omiligi barcha davlatlarda ham jamiyat taraqqiyoti uchun nihoyatda halokatli hodisa bo'lgan. Siyosiy, ijtimoiy va hatto iqtisodiy bo'hronlar, taraqqiyotdagi sustlashish, depsinishlar ham asosan ma'naviy-ma'rifiy zaiflashish oqibatida yuzaga kelgan, chuqur ildiz otib ketgan. Madaniy-ma'rifiy taraqqiyot va ma'rifiy yuksalish bitun insoniyat hayotida katta o'rin tutgan va ustuvorlik qilganidek mustaqil O'zbekistonnig o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li uchun ham muhim hayotiy zaruratdir. O'zbekistonning kelajakda buyuk davlatga aylanishi, Yo'l boshchimiz takidlaganidek, to'rt asosiy negizga - umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikka, xalqimizning ma'naviy me'rosini o'rganish va rivojlantirishga, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishga hamda vatanparvarlikka asoslanadi. Ana shunday ulkan siyosiy qarashlar va bunyodkorlik g'oyalari hukm surayotgan bir davrda ma'naviy barkamol, sog'lom mafkurali insonni tarbiyalashda madaniy - ma'rifiy faoliyatning o'rni va ahamiyati haqidagi ushbu bitiruv malakaviy ishi ayni hozirgi kunimiz va hayotimiz uchun juda zarur va ahamiyatli hisoblanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Bashariyat tarixida sanoqligina xalqqa va millatga zardushtiylik va uning muqaddas kitobi "Avesto" dek ilohiy ne'mat nasib etgan. Bu ham bizning ravnaqimiz, svilizatsiyamiz mahsuli, madaniy-ma'naviy boyligimiz - "Avesto" g'oyalari qadim asori-atiqalarimizning ramziy mohiyatlari ifodasi sifatida hozirgacha bizlarga buyuk madaniy o'tmishdan saboqlar berib, milliy ma'naviyatimiz uchun oltin xazina bo'lib xizmat qilmoqda.

Hozirgi davrimizda esa Islomiy qadriyatlarni, Qur'oni Karim, Muhammad payg'ambarimizning Hadislarini, tasavvuf ta'limotini o'rganar ekanmiz, ularda milliy ma'naviyatimiz uchun o'ta muhim bo'lgan komil inson masalalarini e'tibordan chetta qolmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Umuman olganda shaxs mafkurasini to'g'ri shakillantirish to'g'ri ta'lim-tarbiya berish masalalari barcha davrlarda eng muhim masala hisoblangan. O'zbekiston xalqi o'zining o'tmish tarixida bir necha bor madaniy yuksalish bosqichlarini bosib o'tgan. Ana shunday yuksalish bosqichlarida bizning qadimiy va muqaddas zaminimizda o'zimizning tariximiz, madaniyatimiz, ma'naviyatimiz va ma'rifatimizni, adolat va qonunchilikni va jahon sivilizatsiyasini rivojlanishida bebaho hissa qo'shgan, ma'naviyat va ma'rifat sohasida ta'limot yaratgan buyuk daholar, yetishib chiqqan. Komil inson masalalari aynan bizning vatandoshlarimiz ijodida o'zining chuqur ilmiy-amaliy ahamiyatini topgan. Hususan, Imom Ismoil Buxoriy, at-Termiziy, Ahnad Yassaviy, Bahuddin Naqshband, Abu Nasr Moturdiy, Burhoniddin Marg'iloniy, Najmiddin Kubro, Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Xoja Ahror Valiy, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, kabi ulug' zotlar, buyuk ajdodlarimiz asarlarida insonni ma'naviy jihatdan boyitish masalalari ko'ndalang qo'yiladi.

Manbalarda "Al-faylasuf at-Turkiy" deb yuritilgan Farobiy hayoti davomida 160 dan ortiq asarlar yaratdi, "Aflotun qonunlarining mohiyati", "Nufuzli shahar aholisining maslagi", "Baxt-saodatga erishuv haqida" kabi tadqiqotlar muallifi bo'ldi. U o'zining ko'p qirrali ijodi bilan kelajak avlodning bilim va madaniyatga erishishida inson kamolotiga alohida e'tibor berdi. Yana bir buyuk allomamiz Beruniyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan edi. Inson uning falsafasiga asosan pok, axloqli, go'zal bo'lishi lozim. Keyinchalik Navoiy asarlarida komil inson g'oyasi jamiyat tayanchi va hayotimizning asosiy maqsadi darajasiga ko'tarildi. U yaratgan "Hamsa" ning beshta dostoni asosida

aynan shu muammo yotadi.

Mustaqilligimizdan so'ng esa bu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va Prezidentimiz I.A.Karimovning aynan shu masalaga bag'ishlangan asarlari o'rganilmoqda. Ana shu jihatdan olganda Prezident Islom Karimovning Oliy Majlis birinchi sessiyasida "O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari" ma'ruzasidagi ushbu fikrlari alohida ahamiyatga ega: "Biz sog'lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz kerak. Sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz"

Nafaqat o'z xalqi va millati, balki umuminsoniyat oldidagi burchini anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, umumbashariyat baxtini o'z baxti deb bilish ham inson ma'naviy kamolotining muxim belgisidir. Ma'naviy kamolotga erishgan inson o'zining savobli ishlari bilan kechirgan hayotidan rozi ketadi. Xullas, "Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikri-o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo'ladi"¹.

Atoqli olim N. Komilov komil inson haqida tasavvuf ta'limoti mohiyati ustida fikr yuritib, unda to'rt malak - Jabroil, Makoil, Isrofil va Azroil xislati, Xizarning payg'ambarligi, oftobning saxovati mavjud deb tasavvur etadilar, deydi. U yana davom etib shunday yozadi: "Komil inson, shunday qilib odamzod orzu qilgan jamiki ezgu xislatlarning ifodachisi, u go'yo Mutlaq iloh bilan insoniyat o'rtasida vosita bo'luvchi muqaddas xilqat. Bunday martabaga musharraf insonlarni valiulloh, qibla, qutb, g'avs (madadkor), avtod (ustunlar), abdol (badal qilingan) deb ham ulug'laganlar. Mo'tabar kitoblarda naql qiladilarkim, dunyo shunday zotlar tufayli barqaror» va osoyishtadir... Dunyoning tinchligi va farovonligi, insoniyat butunligi haqiqatdan ham, dono va oqil, pok niyatli odamlar faoliyatiga bog'liq. Ya'ni ilohiy poklik va nafosat, e'tiqod va tafakkur

¹ Karimov I. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild, -T.: "O'zbekiston", 1999.134-bet.

bizni balo-qazolardan asraydi, hayotni avaylab, saqlab turadi"¹.

Tarixda ma'naviy barkamol insonga extiyoj sezmagan jamiyat bo'lgan emas va bo'lmasa ham kerak. Ma'naviy barkamol insonni tarbiyalab voyaga yetkazishga bo'lgan zaruriyatning asosiy sababi va mohiyati nimalar bilan belgilanadi, degan savol tug'ilishi ehtimoldan uzoq emas. Bu mustaqillik talab-extiyoji bilan bog'liq bo'lgan obyektiv zaruriyatdir.

Har qanday ulug'vor maqsadlarga yetishish, inson zotiga munosib go'zal hayotni barpo etish jamiyat a'zolari bo'lgan odamlarga, ya'ni barkamol avlodga ko'p jihatdan taalluqlidir.

Komil insonni, barkamol avlodni tarbiyalash - buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish demaqdir. "Barchangiz yaxshi bilasizki, - deydi Islom Karimov, - kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir... Faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin"².

Ma'naviy barkamol insonni tarbiyalab voyaga yetkazish hozirgi davr talablari asosida yuzaga kelgan, siyosiy-ijtimoiy va iqqisodiy taraqqiyotimiz taqsiri bilan uzviy aloqadorlikka bo'lgan ulug'vor, mas'uliyatli, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan vazifa va muammo ekanligi mohiyatini quyidagicha bayon etish mumkin:

Birinchidan, milliy istiqlolimizning barqarorligini, ijtimoiy taraqqiyotimizning tezlashib, jadallashib borishini, O'zbekistonning buyuk davlat bo'lishini madaniyatli, ma'naviyatli, yuksak odob-axloqli, o'z xalqi, millati, Vatanini butun vujudila sevib ardoqlaydigan, ajdodlari yaratgan bebaho ilmu- hunar javohirlarini imkon qadar mukammalroq egallab olgan, butun insoniyatga xos qadriyatlardan baxramand, boxabar bo'lgan komil insonlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

¹ Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. -T.: "Yozuvchi", 1996, 143-144-betlar.

² Barkamol avlod orzusi. - T.: "Sharq" 1998. 8-9-betlar.

Tadqiqotning maqsadi: Tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad madaniy-marifiy faoliyat jarayonini tashkillashtirish sog'lom mafkurali insonni tarbiyalashning o'ziga xos uslub va usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning predmeti va obyekti: Madaniy–ma'rifiy faoliyat obyektiga spektakl, ommaviy tomosha, xalq sayllari, bayramlar, karnaval, raqs kechalari, viktorina, ko'rgazma, konkurs, sayoxat va ekskursiya kabilar kiradi.

Istiqlolning dastlabki davrlaridanoq muzeylar, qo'riqxonalarining o'rni va rolini belgilab berishga alohida e'tibor qaratildi. Ma'lumki, hozirda birgina Madaniyat ishlari vazirligi tizimida turli sohalar bo'yicha 68 ta muzey mavjud bo'lib, ular — 21 ta o'lkashunoslik, 10 ta badiiy, 14 ta memorial, 5 ta adabiy-memorial, 7 ta badiiy, 1 ta tabiiy-ilmiy muzeylardir.

Shu bilan birga, Samarqandda Davlat muzey-qo'riqxonasi, Buxoroda Davlat muzey-qo'riqxonasi, Xivada «Ichon-Qal'a» Davlat muzey-qo'riqxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Birgina 1999 yidsa ularning asosiy fondiga 7544 ta eksponat qabul qilindi.

Tadqiqotning vazifalari:

- madaniy-marifiy faoliyat orqali sog'lom mafkurali insonni tarbiyalashning asosiy mezonlarini o'rganib chiqish;
- komil insonni tarbiyalashning tarixiy ko'rinishlarini tahlil qilish;
- turli mafkuraviy tahdidlardan yoshlarni asrash va mafkuraviy immunitetni shakllantirish asoslari bilan tanishish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik asoslari o'rganib chiqish, yoshlar bilan olib borilayotgan tadqiqotlarni tahlil etish.

Tadqiqotning metodologik asosi: 1992 yil iyulida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". 1996 yil 9 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida»gi farmoni jamiyatni ma'naviy barqaror-

lashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi¹.

Farmonga asosan 1997- yildan boshlab 1 oktyabr «O'qituvchilar va murabbiylar» kuni deb e'lon qilindi, «Ma'naviyat» nashriyoti tashkil etildi, «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi qoshida «Oltin meros» xalqaro xayriya jamg'armasi ta'sis etildi.

Bu boradagi ishlarni tartibga keltirish., faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov 1999- yil 3- sentyabrda «Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risi»dagi farmoniga imzo chekdi. Ushbu farmon ma'naviyat va ma'rifat davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligi to'g'risidagi g'oyani yanada mustahkamladi va unga yanada kuch berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 12 yanvardagi «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi farmoni esa muzeylar ishida tubdan burilish yasadi. Unga binoan barcha turdagi muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish, Qo'llab-quvvatlash va ularga zarur ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatishni ta'minlash maqsadida Madaniyat ishlari vazirligi qoshida «O'zbek muzey» jamg'armasi tashkil etildi, o'zbek, ingliz, rus tillarida chop etiladigan ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy, rangli «Moziydan sado» jurnali ta'sis etildi.

Tadqiqotning metodlari:

- kuzatish
- anketa so'rov
- suhbat
- ekskursiyalar tashkil etish
- analitik tahlil

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati: O'zbekiston Prezidenti tomonidan ta'kidlab kelinayotganidek, har qaysi jamiyat, har qaysi davlat va «millat nainki tabiiy zamini, yer osti va yer usti zahiralari, tog'lari va o'rmonlari, harbiy qudrati va ishdab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda yuksak madaniyatli va manaviyatli insonlari bilan ham kuchlidir.

¹ Guliston, 1997. 5-son. 4 - bet.

El-yurtiga, vataniga sadoqatli, iymon-e'tiqodi butun, mard va jasur, malakasi yetuk, ma'naviyati yuksak insonlar, barkamol avlod har qaysi davlatning qudratli salohiyat manbaidir. Ana shunday noyob xislat va fazilatlarga ega bo'lgan insonlarni, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazgan xalq, albatta, kelajakka ochiq ko'z, katta ishonch, umid va ixlos bilan qaray oladi.

Ko'rinib turganidek, mustaqil O'zbekiston taraqqiyoti taqdirini ham ma'naviy jihatdan yetuk insonlar hal qiladi.

Tadqiqot ishining strukturaviy tuzilishi: Mazkur bitiruv malakavit ishi, kirish, 2 ta bob va 4ta rejadan iborat asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat.

I bob. Madaniy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etish va uning shaxs mafkurasini shakllantirishdagi o'rni.

1.1. Madaniy ma'rifiy ishlarni tashkil etishning meyoriy asoslari.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki kunlardayoq ijtimoiy xayotni qayta qurish, bozor iqtisodiyotiga o'tish, ishlab chiqarishni rivojlantirish masalalari bilan bir qatorda axolining turmush madaniyatini tubdan yaxshilash, kishilarning bo'sh vaqtini mazmunli uyushtirish, ularning o'sib borayotgan ma'naviy extiyojlarini to'laroq qondirish, xalqning badiiy xavaskorlik ijodi va qobiliyatlarini rivojlantirish kabi dolzarb muammolarga jiddiy e'tibor berildi.

«Madaniy – ma'rifiy faoliyat», avvalo, madaniy-ma'rifiy muassasa, madaniyat uylari, madaniyat va istiroxat bog'lari, muzeylar, kutubxonalar faoliyatidir. Madaniy-ma'rifiy muassasalar bu g'oyaviy va tarbiyaviy ishlar jarayonining tarkibiy qismi xisoblanib, ular xalqimizning ijtimoiy-madaniy xayotida muxim rol o'ynaydi. Ularni xar tomonlama rivojlantirish, xavaskorlik ijodiga jalb qilish va mazmunli xordiq chiqarishni uyushtirish orqali olib boradi.

Madaniy-ma'rifiy faoliyat, asosan kishilarning ishdan bo'sh vaqtlarida olib boriladi, kishilarga asosiy ishdan tashqari xar xil mazmundagi va shakldagi «ikkinchi» faoliyat bilan shug'ullanishlariga imkoniyat yaratadi. Bu faoliyat kishilarning xordiq chiqarishga, bilimini, dunyoqarashini o'stirishga, ijodkorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, ular o'z navbatida asosiy ish faoliyat bilan yaxshiroq shug'ullanishga samarali yordam beradi.

Madaniy – ma'rifiy faoliyat – axolini ma'naviy kamol toptirish, madaniy saviyasini oshirish, bilimini o'stirish, dunyoqarashini kengaytirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, bo'sh vaqtini samarali o'tkazishga ko'mak beruvchi ijodiy-tashkiliy ishlar majmuasidir.

Madaniy-ma'rifiy faoliyatning o'z ob'ekti, predmeti va ish faoliyati mavjud.

Madaniy – ma'rifiy faoliyat quyidagi ishlardan iborat:

Tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish.

Xalq xavaskorlik ijodini o'stirish.

Kishilarning dam olishini tashkil qilish.

Bu ish faoliyatlari madaniy-marifiy ishlarning shakllarini vujudga keltiradi. Madaniy–ma'rifiy faoliyat turlariga spektakl, ommaviy tomosha, xalq sayllari, bayramlar, karnaval, raqs kechalari, viktorina, ko'rgazma, konkurs, sayoxat va ekskursiya kabilar kiradi.

Ko'rinib turibdiki, madaniy-ma'rifiy faoliyatining ish shakllari xilma xil va ko'pdir. Ular xaqida to'liq tushunchaga ega bo'lish uchun maxsus tasnif mavjud. Ular ichida ikki xil tasnif diqqatga sazovordir. Birinchi tur tasniflashga madaniy – ma'rifiy ish shakllariga qatnashadigan kishilarning soni asos qilib olinadi. Ular quydagilarga bo'linadi: yakka, guruxli va ommaviy shakllar.

Yakka shakllar-mutaxassis va tinglovchi o'rtasidagi konsultatsiya, yakka suhbat, ommaviy mashg'ulotlardan tashkil topadi.

Guruxli shakllar – taxminan 15-30 kishi qatnashadigan tadbirlar, ya'ni munozara, seminar, suhbat, ekskursiya, xavaskorlik jamoalari mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi.

Ommaviy shakllar – soni cheklanmagan, katta auditoriyaga mo'ljallangan ma'ruza savol-javob kechalari, mavzuli kechalar, ommaviy tomoshalar, bayramlar va boshqalarda vujudga keladi. Ommaviy shakllar Madaniy-ma'rifiy faoliyatning asosiy qismini tashkil qiladi.

2-tur tasniflash madaniy faoliyatda qanday ta'sirchan vositalardan va usullardan foydalanish asosida vujudga keladi. Bu borada xam ish shakllari 3ga bo'linadi: monologik, diologik va ko'p tarmoqli shakllar.

Monologik shakllar – bu notiqning og'zaki, «jonli» so'zi hamda boshqa ta'sirchan vositalar orqali auditoriyaga axborotlar beradigan tadbirlar. Masalan, ma'ruza, doklad, axborot va boshqalar.

Diologik shakllar bular asosan, muloqot, suhbat, fikr almashishlardan iborat bo'lib, unga suhbat, munozara, uchrashuv, savol-javob kechalari kiradi.

Ko'p tarmoqli shakllar deganda monologik va diologik shakllar bilan bir qatorda boshqa ta'sirchan vositalardan foydalanish mumkin bo'lgan tadbirlar tushuniladi. Masalan, og'zaki jurnal, mavzuli kechalar.

Madaniy – ma'rifiy faoliyatning uch asosiy bo'gini mavjud bo'lib, bular:

madaniyat, ma'naviyat va ma'rifatdan iborat.

Madaniyat arabcha «madina» (shahar kentlar) so'zidan kelib chiqqan. Arablar kishilar xayotini ikki turga bo'lib, birini badaviy yoki saxroyi turmush, ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Badaviylik bu ko'chmanchi xolda cho'l saxrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik esa shaxarlarda o'troq yashab, shaxarga xos turmush tarzida yashovchi xalqlarga nisbatan ishlatilgan.

Madaniyat atamasi keng ma'noda qo'llanib jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy xayotda ko'lga kiritilgan yutuqlar majmuini biror ijtimoiy gurux yoki xalqning ma'lum davrda qo'lga kiritilgan shunday yutuqlari darajasini, o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik va ma'rifatlilikni xamda turmushning ma'rifatli kishi extiyojlariga mos keladigan sharoitlari majmuini bildiradi.

Madaniyat ikki turga bo'linadi: moddiy va ma'naviy madaniyat.

Moddiy madaniyat moddiy faoliyatning barcha soxalari xamda uning samaralari-mehnat qurollari, turar-joy, kundalik turmush buyumlari, kiyim-kechak, transport, aloqa vositalari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ma'naviy madaniyatga aqlan va ma'nan yaratuvchanlik soxalari-bilim, aloqa, ta'lim-tarbiya, xuquq, falsafa, nafosat, fan, san'at, adabiyot, folklor, din va shu kabilar kiradi.

Faqat bir xalqqa tegishli, faqat bir xalq madaniyatining asosini shu millat yaratgan bo'lsada, unda jaxon xalqlari yaratgan umuminsoniy madaniyatning ulushi va ta'siri bo'ladi, albatta.

Madaniyat – umuminsoniy xodisa, lekin Sho'ro mafkurachilari aytib kelganidek sinfiy xodisa emas. Madaniyat barchaga barobardir.

Har bir jamiyat va davr o'z madaniyat ko'rinishiga ega bo'ladi. Jamiyat o'zgarishi bilan uning madaniyati o'zgaradi-yu, lekin madaniy taraqqiyot uzilib qolmaydi, ilgarigi madaniyat yo'q bo'lib ketmaydi, madaniy meros va an'analari saqlanadi.

O'tmish davrlardan insoniyatga qolgan moddiy va ma'naviy madaniyat boyliklari majmuiga madaniy meros deyiladi. Har bir yangi avlod moddiy va

ma'naviy madaniyat negizini yangitdan yaratmaydi, balki ajdodlar tamonidan yaratilgan madaniy boyliklarni qabul qilib oladi.

Sho'rolar davrida madaniy merosga noto'g'ri munosabatda bo'lindi: ya'ni ular «boyu zamindorlarga, xokim sinf tabaqalariga xizmat qilgan o'tmish madaniyatining bizga keragi yo'q, yangi-proletar madaniyatni yaratamiz» degan shior ostida sobiq Sovet Ittifoqi xalqlarining, jumladan, o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy madaniyatiga qiron keltirildi, saroy, masjid va madrasalar buzib tashlandi, nodir asarlar yoqildi.

Shu bilan birga har bir jamiyat o'tmish madaniy merosini qanday bo'lsa, shundayligicha, ko'r-ko'rona qabul qilib olmaydi, albatta. Madaniy merosning o'z dunyoqarashi, tuzumi, manfaatlarga mos keladigan, bugun va kelajak uchun xizmat qiladigan qismini qabul qiladi. Chunki o'tmishdan qolgan barcha narsalar bir xil qadriyatga ega bo'lmaydi. Masalan, sho'rolar zamonida yaratilib, uning siyosatini targ'ib etgan endilikda o'z umrini yashab bulgan kitoblarning bugun uchun xam, kelajak uchun xam qadriyati yo'q. To'g'ri, ular meros, lekin madaniy meros emas, ularni tarixiy fakt sifatida saqlab qo'yish mumkin, xolos.

Demak, madaniy merosning qadri abadul - abad tushumaydigan qismiga milliy qadriyatlar deyiladi.

Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma'naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag'ishlaydi. Faqat moddiy jixatdan ta'minlanish bilan kifoyalanish ongsiz va ruhsiz maxluqlarga xos. Ma'naviyatga intilish esa ruh va ong egasi bo'lmish insonga xos fazilatdir.

Ma'naviyat – odamning ruxiy va aqliy olamiligini majmuidir.

Ma'naviyat – jamiyatning, millatning yoki ayrim bir kishining ichki xayoti, ruxiy kechinmalari, aqliy qobiliyatiga, idrokini mujjassamlashtiruvchi tushuncha. Ma'naviyat inson va jamiyat madaniyatining negizi inson va jamiyat xayoti ma'lum yo'nalishining bosh omilidir.

Ma'naviyat boyib borsa, jamiyat ravnaq topadi, va rivojlanadi, ma'naviyat qashshoqlansa, jamiyat tanazzulga yuz tutadi.

Shuning uchun mustaqqillik yillarida ma'naviyatga kuchli e'tiborga

borilayotganligining sababi xam shunda. Boy ma'naviyatsiz buyuk davlat ko'rib bo'lmaydi.

Ma'naviyat keng tushuncha bo'lib, ma'rifat, madaniyat tushunchalarini xam o'ziga kamrab oladi.

Har bir jamiyatning ma'naviyat darajasi uning iste'dod egalarini, umuman, o'quvli shaxslarini qadrlash, ularga gamxo'rlik ko'rsatilishi, kamol toptirishiga uchun yetarli shart – sharoitini ta'minlab berishi bilan xam belgilanadi. Rivojlangan, ma'naviyatli jamiyatlarda iste'dod egalari millatning yuzi, g'ururi va kelajagi deb qaraladi. Bizning o'zbek jamiyatimiz xam shu yo'ldan bormoqda.

Turon va Turkistonda azaldan iste'dod egalarini e'tirof etish va munosib qadrlashga xamisha e'tibor berib kelingan. Bir tarixiy misol A.Navoiy buyuk asari «Xamsa» ni yozib tugatgach, Sulton Xusayn Boyqaro ulug' bobomizni saroyga taklif qiladi, peshvoz chiqib, karnay-surnaylar sadosi ostida zo'r tantanalar bilan kutib oladi, arkoni davlat, amirlar, vazirlar, ulamo va fuzalo xozirligida shoirga shoxona sarupolarni o'z qo'li bilan kiygizadi, kumush bilan ziynatlangan egar-jabduqli oq argumoqqa mingazadi A.Navoiy mingan ot jilovini Xusayn Boyqaroning o'zi tutganicha Xuroson mamlakatining poytaxti bo'lmish Xirotning bosh ko'chalarini aylantirib chiqadi. Xaloyiq ularni bab-barobar olqishlaydi. Biri buyuk asar yaratgani uchun, ikkinchisi shu asar yaratuvchining qadriga yetgani uchun shunday olqishlarga sazovor bo'ladilar. Bu buyuk asarning shoxona taqdirlanishi edi.

Biroq mustamlakachilik, chorizm zulmi va sovet imperiyasi yillarida yurtimizda iste'dod egalari to'la bo'y ko'rsatishlariga e'tibor berilmadi. Chunki bundan kommunistik tuzum manfaatdor emasdi, u yirik iste'dod egalari paydo bo'lishi xalqning milliy ruxi va gururini uyg'otib yuborishidan cho'chir edi.

O'zbekiston Respublikasi milliy mustaqillikka erishgach xar soxada bo'lgani kabi iste'dod egalariga bo'lgan munosabat xam o'zgardi. Ilm-fan, adabiyot, san'at va me'morchilik soxalarida iste'dodli yoshlarni izlab topish, ularning ijodiy saloxiyatini yurtimiz mustaqilligi va xalqimiz ma'naviyatini boyitishga yo'naltirish, ularga g'amxo'rlik qilish kun tartibiga qo'yildi. Respublika

Prezidentining bu boradagi qator farmonlari, xukumat qarorlari fikrlarimizni tasdiqlaydi. Buni jamiyatimizning ma'naviy darajasini ko'rsatuvchi belgilardan biri deyish mumkin.

Ma'rifatning lug'aviy ma'nosi - bilish, tanish, bilimdir. Bu so'zning ko'plik shakli maorifdir.

Ma'rifat-tabiat, jamiyat va inson mohiyati xaqidagi turli-tuman bilimlar, ma'lumotlar majmuasini bildiradi. Ma'rifatli degani-bilimli, muayyan soxada ma'lumoti bor, deganidir. Ma'rifatni xayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi. Maorif asosan, umumiy va o'rta maxsus bilim beruvchi maktab va o'quv yurtlari tarmoqlarini qamrab oldi. Ma'rifat tushunchasi esa kengroq bo'lib, bilim va madaniyatni yoyish va yuksaltirishning xamma turlari va soxalarini o'ziga qamraydi.

Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga o'tishi, bir tarixiy davrdan ikkinchi bir tarixiy davrga o'tishi ma'rifatparvarlikdan boshlanadi. Zamonaning eng yetuk, ongli, deb yashovchi, uzoqni ko'zlovchi ma'naviyatli siymolari ma'rifatparvarlik bilan shugulanadilar.

Har bir davrning o'z ma'rifatparvarlari bo'ladi. A. Donish, Muqimiy, Furqat, Komil Xorazmiy, A.O'tar, Zavqiy kabilar o'z asarlarida xalqni qoloqlikdan qutqarish yo'lini ma'rifatda ko'rdilar.

Munavvar qori, M.Behbudiy, A.Avloniy, S.Ayniy, Abdurauf Fitrat va boshqalar xalqni milliy uyg'onishga da'vat etdilar.

Madaniy – ma'rifiy muassasalar quyidagi turlarga bo'linadi: Kutubxona, muzey, madaniyat uyi, istiroxat bogi, madaniy dam olish maskanlari.

Kutubxonalar o'zlarining vazifalari, faoliyatlari, kitob fondlarining tarkibiga qarab, ommaviy, texnikaviy va turli maxsus kutubxonalar, o'quv yurtlari, kutubxonalari, ilmiy kutubxonalarga bo'linadi. Ommaviy kutubxonalar axolining turli soxaga doir kitoblarga bo'lgan talablarini qondirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi tizimida quyidagi kutubxonalar bo'ladi:

Respublika kutubxonasi.

Viloyat kutubxonasi. Ular respublikadagi, viloyatdagi, shaxar, tuman , qishloq kutubxonalariga uslubiy yordam beradilar.

Shaxar, tuman kutubxonalari kuyidagi turlarga bo'linadi.

Qishloq kutubxonalari.

Bolalar kutubxonalari.

Madaniyat uyi byudjetida turuvchi klub-kutubxonalari.

O'quv yurtlari kutubxonalari. Ular o'zlarining fondlariga qarab umumta'lim maktablari, kasb-xunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari, malaka oshirish kurslari va institutlarning kutubxonasiga bo'linadi.

Ilmiy-texnika va turli maxsus kutubxonalar. Bu kutubxonalarning kitob fondlari ishlab chiqarish malakalarini oshirishda, xalq xo'jaligi yo'nalishidagi madaniyatning konkret vazifalarini xal qilishda turli soxadagi xodimlarga yordam beruvchi adabiyotlardan tashkil topadi. Bularga korxona, ilmiy muassasalar, nashriyotlar, konstruktorlik tashkilotlari, teatr, muzika, sport tashkilotlarining kutubxonalari kiradi.

Ilmiy kutubxonalar. Ular o'z ishlarini fan, madaniyat, ishlab chiqarish talabalarga muvofiq tashkil qiladi, mutaxassislariga ilmiy malakalarini oshirishda ko'maklashadi.

Muzeylar - Ular vazifasi tarixiy xujjatlarni, moddiy va ma'naviy madaniyat yodgoriliklarini, san'at asarlarini, tabiat boyliklarining namunalarini to'plash, saqlash, ularni ilmiy ishlab chiqarish va ko'rgazmaga ko'yishdan iboratdir. Shular bilan birgalikda muzeylar ilmiy - tekshirish ishlarini xam olib boradilar.

Muzeylar quyidagi tarmoqlarga bo'linadi:

1. Tarix muzeylari.
- 2.Xotira yodgorlik muzeylari.
- 3.O'lkashunoslik muzeylari.
- 4.San'atshunoslik muzeylari.
- 5.Tabiiy-ilmiy muzeylar.

Tarix muzeylarida Vatanimiz tarixini aks ettiruvchivchi xujjatlar, yodgorliklar, moddiy va ma'naviy madaniyat esdaliklari to'plangan bo'ladi.

Xotira-yodgorlik muzeylari Respublikamizning mashxur arboblari; shuxrat qozongan yozuvchi va rassomlar, kompozitor, olimlari, san'atkorlar xotirasiga bag'ishlangan bo'ladi. Bularga G'.G'ulom, A.Qahhor, Oybek uy-muzeylari, O'rol Tansiqboev, M.Ashrafiy uy - muzeylari, Tamaraxonim, M.Turg'unboeva va boshqalarni ko'rsatish mumkin

O'lkashunoslik muzeylari. Viloyat, tumanning tabiiy sharoiti tarixi, xo'jaligi madaniyati va turmushini xarakterlovchi xujjatlar va yodgorliklarni to'playdi.

Tabiiy-ilmiy muzeylarga tabiatshunoslik, biologiya, geografiya muzeylari kiradi.

6. San'atshunoslik muzeylari. Ularga tasviriyl san'at, amaliy san'at, arxitektura, musiqa, teatr san'ati yutuqlarini ko'rsatuvchi muzeylar kiradi.

Madaniyat uylari, saroylari ikki turga bo'linadi:

I. Madaniyat Vazirligi tarmog'idagi madaniyat uylari. Bularga quyidagilar kiradi:

Shaxar madaniyat uylari - bular davlat tarmog'idagi madaniyat uylari bo'lib, shaxar axolisiga xizmat ko'rsatadi.

Tuman madaniyat uylari.

Qishloq madaniyat uylari - o'zlari yashaydigan qishloq axolisiga madaniy xizmat ko'rsatadi.

II. Kasaba qo'mitasi tarmog'idagi madaniyat muassasalari. Ularga korxona qoshidagi, shuningdek, sanatoriylar, dam olish uylarining klublari xam kiradi. Ular o'z tashkilotlarining ixtiyorida bo'ladi.

Madaniyat va istiroxat bog'lari ularda ommaviy sayillar, karnavallar, sport va boshqa bayramlar, turli ommaviy tomoshalar o'tkaziladi, spektakllar, kinofilmlar qo'yiladi, siyosiy va ilmiy ma'ruza va dokladlar tiinglanadi. Madaniy dam olish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan bo'ladi. Bundan tashqari madaniyat va istiroxat bog'larining bezagi, ulardagi tabiiy manzarali joylar kishilarning estetik didlarini o'stirishga yordam beradi

Teatrlar – saxna asarlarining janrlariga muvofiq, quyidagilarga bo'linadi:

A) opera va balet teatrlari;

- B) drama;
- V) muzikali komediya teatrlari;
- G) yosh tomashabinlar teatrlari;
- D) qo'g'irchoq teatri
- E) miniatyura teatrlari
- J) estrada teatrlari

Konsert tashkilotlariga quyidagilar kiradi:

- A) davlat filarmoniyalari;
- B) davlat estrada jamoalari
- V) mustaqil musiqa jamoalari.

Kinoteatrlar – kinofilm namoyish qilish uchun maxsus jixozlangan maskan.

Shuningdek, ma'naviy – ma'rifiy ishlar bilan ommaviy axborot vositalari (radio, tv, matbuot); Ta'lim tarbiya muasasalari; Ijodiy uyushmalar (yozuvchilar, rassom, kompozitorlar, teatr arboblari) xam shug'ulanadilar.

Darhaqiqat, mustaqil O'zbekistonda ma'naviyat sohasida mavjud bo'lgan vazifalar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorlik sharoitida mutgasil ravishda bajarilib kelinmoqsa. Chunonchi, istiqdolning dastlabki yillarida jamiyat ma'naviy hayotida turgan eng bosh vazifa fuqarolarda sovet davriga xos tafakkurni, eskicha fikrlash sarqitlarini bartaraf etish edi. Mazkur masalada qator yutuqlarga erishildi. Biroq, bu borada hali talay ishlarni bajarish lozim.

Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichidagi eng muxim vazifa esa erkin fuqarolik jamiyatining ma'naviyatini shakllantirish, zero «ozod, o'z haq-huquqlarini yaxshi taniydigan, boqimandalikning har qanday ko'rinishlarini o'zi uchunor deb biladigan, o'z kuchi va aqliga, kuchiga ishonib yashaydigan, ayni zamonda o'z shaxsiy manfaatlarini xalq Vatan manfaatlarini bilan uyg'un holda quradigan komil insonlarni tarbiyalashdan iboratdir»¹.

Istiqlol yillaridagi O'zbekiston madaniyati xususida fikr yuritganda aloxida qayd etilishi lozim bo'lgan masalalardan yana biri — ma'naviyat sohasidagi siyosatning

¹ Karimov I. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. -T.: "O'zbekiston", 1999. 16-bet

tobora konkretlashib borishi, vazifalarni hal etish yo'llarining oydinlashuvidir. Ma'naviyat jamiyat a'zolarini ruhan poklantiruvchi, ma'nan yuksaltiruvchi, inson ichki dunyosiga, irodasiga kuch-quvvat beruvchi, milliy vijdonini uyg'otuvchi va doimiy harakatdagi konkret kuchdir. Shunday ekan, ma'naviyatga umumiy tarzda munosabatda bo'lish xatodir. Zero, har bir fuqaroning ma'naviy-mafkuraviy komillik darajasi bir xil bo'lmagani kabi, ularning bunday sifatlarini uyg'unlashtirib turuvchi ko'rinishlari ham konkretidir.

Mamlakat Prezidentining ta'kidlashicha, yangi asr bo'sag'asida ma'naviyat sohasidagi strategik maqsadimiz — «milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlangan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom etgirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir»¹.

Darhaqiqat, istiqlolning hozirgi bosqichida ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarni tashkil etishda endi ularning samardorligiga erishish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xo'sh, ma'naviyat sohasidagi ishlarning samaradorligiga erishish deganda nimani tushunish mumkin? Umuman, madaniy-mafkuraviy sohadagi ishlarimiz jamiyatni ma'naviy yuksaltirishga qodirmi?

Shu o'rinda, qurilayotgan demokratik, huquqiy, insonparvar jamiyat yuksak ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga tayanishini, bu jarayon esa milliy goya va milliy mafkuraga, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga asoslanishini alohida qayd etish zarur.

Agar istiqlolning dastlabki yillarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardan ko'zlangan maqsad sovet mustabid tizimi asoratlaridan qutulish, jamiyatda ma'naviy yakdillikni yaratishdan iborat bo'lgan bo'lsa, endi ijtimoiy hamkorlik, komil insonni tarbiyalash ustuvor vazifaga aylanmoqda. Ma'naviyatning mamlakatda demokratik, huquqiy, qudratli davlat qurish yo'lidagi muhim omil ekanligi endi hech kimga sir emas.

O'zbekistonning hozirgi taraqqiyot bosqichida ma'naviy omillar hamda millatlararo munosabatlar maslasiga qarash ham tubdan o'zgardi. Chunonchi, istiqlolning dastlabki

¹ Karimov I. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - piravard maqsadimiz. -T.: "O'zbekiston", 2000. 24-bet

davrlarida «soxta baynalmilallik» oldida yurak oldirib qo'ygan hamda hadiksirash kasalidan holi bo'lmagan holda, har qanday milliylikni ulug'lash va har qanday «bayanalmilallik»dan qochish hissiyoti yuzaga kelgan edi. Bunday biryoqlamalik, tabiiyki, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotiga, ayniqsa, millatlararo munosabatlar masalasiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin edi.

Shuning uchun ham O'zbekiston hukumati madaniyatdagi milliylik va baynalmilallik nisbatini saqlashga muhim vazifa sifatida munosabatda bo'la boshladi. Ayni paytda 130 ga yaqin millat va elat yashayotgan O'zbekistonda har bir millat ravnaqi, uning barqaror taraqqiyoti, xavfsizligi va yashash kafolatlariga har qanday tahdidlarning oldini olish, u yoki bu millatga mansub kishilar guruhining xudbinlik kayfiyatlarini chegaralab qo'yadigan davlat siyosatining ishlab chiqilishi bu boradagi amaliy ishlarning samarasini oshiradi.

O'zbekistonda istiqomat qilayotgan ko'p millatli xalqlarning madaniy taraqqiyoti, ularning o'zliklarini anglash jarayonlariga bo'lgan intilishlarini qonuniy-huquqiy asosda qondirish masalalari ham mamlakat hukumati oldidagi eng muhim vazifalardan biri bo'ldi. Shu o'rinda, 1989- yili O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi huzurida respublika millatlararo madaniy markazning tashkil etilishini alohida ta'kidlash lozim. Agar 90-yillarning boshlarqsa O'zbekistonda 12 ta milliy-madaniy markaz faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib ularning soni 80 dan ortdi¹. Mustaqillik yillarida milliy-madaniy markazlar faoliyati ustidan muvofiqlashtiruvchi ishlarning ko'lami ham ortdi va 1992- yil yanvar oyida hukumat qarori bilan Respublika Baynalmilal madaniy markazi tashkil etildi.

Ushbu markazning bosh vazifasi qilib esa, milliy madaniy markazlarga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish, ular faoliyatini muvofiqlashtirish, milliy an'ana, urf-odatlarini qaytadan tiklash, MDH va xorij davlatlaridagi baynalmilal madaniy markazlar bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish, O'zbekistonda millatlararo aloqalarni yaxshilash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash kabi muhim masalalar kiritildi.

Istiqlol yillarida ma'naviy-ma'rifiy masalalarga jiddiy e'tibor hukumat tomonidan

¹ O'zbekiston millatlararo hamjihatlik yo'lida. Toshkent, 1996. 3 - bet

bu borada mukammal tarzda ishlab chiqilgan dastur asosida ish olib borishni talab etdi. Shu asosda 1994- yil 23- aprelda mamlakatimiz ma'naviy hayotida muhim voqea yuz berdi. Prezident I. Karimov farmoni bilan Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat jamoatchilik markazi tashkil etildi.

Ma'lumki, sobiq Ittifoq tugatilishi bilan birga, uning kommunistik mafkurasi ham barham topdi. Bu yakkahokim mafkuraning achchiq saboqlaridan xulosa chiqarib, mamlakatimizning Asosiy Qonunida «Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi», deb yozib qo'yildi. Shu tariqa, jamiyatimiz hech qachon mafkura yakkahokimligi ro'y bermasligi uchun zarur bo'lgan huquqiy poydevor yaratildi. Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi ayni shu maqsadni ko'zda tutib tashkil etildi¹.

Qayd etish lozimki, Ma'naviyat va ma'rifat markazi qisqa davr ichida xalqimizning boy ma'naviy merosini o'rganish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida mamlakat va millat kelajagini belgilaydigan ilg'or g'oyalarni yuzaga chiqarish bo'yicha yirik ishlarni amalga oshirdi. Shu bilan birga, ma'naviyat va ma'rifat masalalarini bevosita jamoatchilik yo'li bilan rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi o'z samarasini bermoqda. Ushbu yo'nalishdagi faoliyatni yanada rivojlantirish maqsadida 1996- yil 9-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida»gi farmoni jamiyatni ma'naviy barqarorlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi². Unda mazkur masalada jiddiy ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda ayrim hollarda ma'naviyat moxiyatini, uning olg'a siljishini, farovon, tezkor hayotimizdagi qimmatini chuqur idrok etmaslik ko'rinishlari mavjudligi, bu ishga daxldor rahbarlarda mas'ullik hislari past ekanligiga e'tibor qaratildi.

Farmonga asosan 1997- yildan boshlab 1- oktyabr «O'qituvchilar va murabbiylar» kuni deb e'lon qilindi, «Ma'naviyat» nashriyoti tashkil etildi, «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi qoshida «Oltin meros» xalqaro xayriya jamg'armasi ta'sis etildi.

¹ Jo'raev N. Agar ogoh sen... -T.: Sharq, 1998. 148 - bet.

² Guliston, 1997, 5-son. 4 - bet.

Bu boradagi ishlarni tartibga keltirish., faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov 1999- yil 3- sentyabrda «Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risi»dagi farmoniga imzo chekdi. Ushbu farmon ma'naviyat va ma'rifat davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligi to'g'risidagi g'oyani yanada mustahkamladi va unga yanada kuch berdi.

Hukumat tomonidan ko'rilgan tadbirlar samarasi natijasida ma'naviyat va ma'rifat jamiyatda ruhiy poklanishga, shaxs ulug'vorligini oshirishga, demokratik, huquqiy, insonparvarlik davlat qurishga mustahkam poydevor yaratadi.

Istiqlol yillarida O'zbekiston hukumati milliy madaniyatni rivojlantirish, ayniqsa, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga katta e'tibor berdi. Ma'lumki, mamlakatimiz jahon sivilizatsiyasining muhim o'choqlaridan biri sifatida ko'plab tarixiy-madaniy, me'moriy yodgorliklarga juda boy. Biroq, sobiq sovetlar davrida ularni saqlash, ta'mirlash juda o'lda-jo'lda edi. Istiqlol esa ana shu obidalarni saqlash, ularni kelgusi avlodga butunligicha yetkazish imkonini berdi. Agar sobiq sovetlar davrida 6700 dan ortiq madaniyat va tarix yodgorliklarini ta'mirlash, tiklash ishlariga 1989-yilda 10,2 mln. so'm, 1990- yilda 12,4 mln. so'm ajratilgan bo'lsa, mustaqillikning dastlabki yilida — 1992 yilda respublika byudjetidan bu maqsadda ajratilgan mablag'lar 65,4 mln. so'mni tashkil etdi. Jumladan, 1991-1997- yillar davomida Samarqand madaniyat va tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash ustaxonasi tomonidan bajarilgan ishlar hajmi 20 barobar, Shaxrisabz ustaxonasining bajargan ishlar hajmi 23 martaga oshdi.

1997- yilda Buxoroda 366 mln. so'm, Xivada 185 mln. so'm hajmidagi, Amir Temur nomi bilan bog'liq qadamjolarini ta'mirlash ishlarining ikkinchi bosqichi bo'yicha 250 mln. so'm hajmidagi ishlarni amalga oshirish rejalashtirildi. Agar, 1999- yilda ushbu maqsadlar uchun 700 mln. so'm ajratilgan bo'lsa, bu raqam 2000- yilda 750 mln. so'mga yetdi¹.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995- yil 28- oktyabrdagi «O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» qabul qilingan qarori mamlakatimiz ma'naviy madaniyati rivojida katta ahamiyatga

¹ O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligining joriy arxivi

molik bo'ldi. Uning natijasida 5000 dan ortiq madaniyat va san'at xodimlarining yashash sharoitini yaxshilash imkoni tug'ildi. Barcha teatr va musiqa muassasalari ijodiy xodimlarining o'rtacha ish haqi 30—35% ga oshiriddi.

1991—1995- yillar davomida 22 kishi «O'zbekiston xalq artisti», bir kishi «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi», 3 kishi «O'zbekiston xalq hofizi», 9 kishi «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi», 75 kishi «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist», 37 kishi «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi», 32 kishi «O'zbekiston Respublikasining Faxriy yorliqlari» bilan taqdirlandi¹.

Insoniyat tarixida o'z ijtimoiy ahamiyati jihatidan alohida e'tiborga loyiq holatlar, qadriyatlar mavjudki, bular u yoki bu millat, elat, xalqning mavjudligi belgisi, taraqqiyot mezoni xisoblanishi mumkin. Millat mavjudligining ana shunday muxim belgilardan biri ta'lim tizimi hamda yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasidir.

Darhaqiqat, ta'lim tizimi demokratik tamoyillar bilan uyg'unlashgan, uning insonparvar jamiyat barpo etish kabi ijtimoiy ehtiyoj talablariga javob bergandagina u buyuk maqsad — barkamol avlodni tarbiyalash va shakllantirish vazifasini ado etishi mumkin.

Kommunistik «nazariya» tomonidan ta'lim tizimiga qo'yilgan asosiy maqsad — jamiyat a'zolarini mafkuraviy qullikka, itoatkorlikka majbur qilishdan boshqa narsa emas edi. Mafkuraviy biqqlik, erkin fikr yuritilishidan iborat shaxs daxlsizligi, demokratik tamoyillarga bepisanddik bilan munosabatda bo'lish kabi illatlar kishilarda ijtimoiy passivlik holatini yuzaga keltirdi.

Bular O'zbekiston mustaqilligining dastlabki davridanoq barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham chuqur o'zgarishlarni amalga oshirishga, tub islohotlarni o'tkazishga undadi. Istiqlol mamlakat fuqarolarida erkin fikrlashga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni uyg'otdi.

Mafkuraviy qullikdan holi ravishda, mamlakat va xalq manfaatlariga mos tarzda faoliyat ko'rsatishga intilish xisssiyotining bemaol, erkin ro'yobga chiqishi O'zbekiston fuqarolari dunyoqarashida yangilikka tashnalik kayfiyatini paydo qildi. Bu masala, ayniqsa, yangi tayyorlanishi, shakllanishi lozim bo'lgan mutaxassis kadrlarga

¹ O'zR MDA. M-7-f., 1-ro'yxat, 503-ish, 76-varoq.

nisbatan munosabatni o'zgartirib yubordi. Istiqlolning dastlabki davridanoq mamlakat hukumati mavjud ta'lim tizimida tub islohotlarni o'tkazishga alohida ahamiyat berishga kirishish lozimligini anglab yetdi. Mamlakat Prezidenti ta'kidlaganidek, «oldimizga qo'yilgan eng ezgu maqsadimiz bilan uzviy bog'langan bugungi kundagi yana bir g'oyatda dolzarb masala — Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish bu borada boshlangan ishlarimizni davom ettirish va kuchaytirish bundan buyon ham biz uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi»¹.

Xo'sh, yuqorida qayd etilgan holatlardan tashqari, yana qanday sabablar ta'lim tizimida tub islohotlarni o'tkazishga undadi? Bular kadrlar tayyorlash milliy tizimining demokratik o'zgarishlar va bozor islohotlariga muvofiq emasligi, yuqori malakali murabbiy kadrlarning yetishmasligi, sifatli o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallarning kamligi, ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtasida puxta o'zaro hamkorlik va o'zaro foydali integratsiyaning yo'qligi kabilardir.

Bularning barisi ta'lim tizimini zudlik bilan isloh etish, mazkur sohani chuqur insonparvarlashtirishni talab etardi. To'g'ri, 1992- yil iyulida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va davlatimizning shu asosdagi ta'lim-tarbiya siyosati ishlab chiqilgan edi.

Ta'kidlash lozimki, hamdo'stlik mamlakatlari orasida birinchi bo'lib respublikamizda «Ta'lim to'g'risida»gi qonun qabul qilindi; «Maktabgacha tarbiya», «Umumiy o'rta ta'lim», «Maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar», «Yoshlar siyosatiga oid» kabi qator konsepsiyalar va dasturlar yaratildi, davlat ta'lim tizimi jahon amaliyoti talablariga muvofiq kelishi uchun xorijiy davlatlardagi ilg'or tajribalar o'rganildi va shu asosda 20 dan ortiq yo'nalishlar, fanlar bo'yicha standartlar loyihasi tayyorlandi.

Istiqlol yillarida, umuman, maktablarda ona tilini o'qishga muhim e'tiborning qaratilishi va «Davlat tili haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini bajarish yuzasidan olib borilgan ishlar tufayli maktablarda ona tili va adabiyotga ajratilgan soatlar hajmi ko'payib, 2720 soatga yetdi.

¹ Karimov I. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - piravard maqsadimiz. -T.: "O'zbekiston", 2000. 27-bet

Umuman, 1992-yilda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilishda muhim rol o'ynadi. Biroq, qayd etish joizki, mazkur hujjat O'zbekistonning yangi sharoitdagi vazifalariga to'liq javob beraolmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1997- yili avgust oyida o'zining IX sessiyasida tamomila yangi, sifat jihatdan mukammal bo'lgan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ishlab chiqildi.

«Ta'lim to'g'risidagi» qonunning eng ilg'or jihatlaridan biri unda ta'lim sohasidagi davlat siyosati asosiy tamoyillarining bayon etilishi bo'ldi. Ular quyidagilardan iboratdir:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar demokratik xarakterda ekanligi;
- umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishi tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterdaligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqqligi;
- ta'lim dasturini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish;

Respublika rahbariyatining ta'lim-tarbiya sohasiga bu darajada katta e'tibor berishi bejiz emas. Gap shundaki, mamlakatimiz aholisining aksariyat ko'pchiligi yoshlar, o'smirlardan iborat bo'lib, ular o'z kelajaklarini aynan bilim olish bilan bog'langandirlar. Xususan, 2000 yilga kelib O'zbekistonda 9,5 mingga yaqin umumta'lim maktablari, gimnaziya, litseylar, kollejlari, 300 ga yaqin o'rta maxsus ta'lim muassasalari, 65 ta oliy o'quv yurtlari bo'lib, ularda 600 mingdan ortiq malakali murabbiylar mehnat qildilar.

So'nggi yillarda respublikamizda yashayotgan va ozchilikni tashkil etgan millatlar farzandlari ta'lim-tarbiyasiga ham e'tibor kuchaytirildi. O'zbekistonda 2,5 mingdan ortiq o'quvchisi bo'lgan 50 ga yaqin qrimtatar maktabi, 130 ta o'quvchisiga ega bo'lgan 2 ta nemis maktabi, bitgadan kurdlar va yahudiylar maktablari faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Bundan tashqari, 9000 dan ortiq qozoq, 300 dan ortiq tojik farzandlari, 1000 dan ortiq qirg'iz farzandlari va yana 1,5 mingga yaqin turkman farzandlari ham o'z tillarida ta'lim-tarbiya ola boshladilar¹.

O'zbekiston hukumati istiqlol talablariga javob bera oladigan iqtidorli yoshlarni tanlab olish, ularning fan yo'lidagi so'qmoqlarni sharaf bilan bosib o'tishi borasida ham qator ishlarni amalga oshirmoqda. «Umid» jamg'armasining O'zbekiston Prezidenti tomonidan ta'sis etilishini shu ma'noda tushunish lozim. Jamg'arma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997- yil 13- yanvar qaroriga muvofiq ish boshladi.

Ma'lumki, mamlakatimizda tarixiy tub o'zgarishlarni muvaffaqiyatli o'tkazish, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun jahon andozalari darajasida bilim olgan iste'dodli, axloqan barkamol yosh milliy kadrlar zarurdir. «Umid» jamg'armasining o'z oddiga qo'ygan eng katta maqsadi ham xalq xo'jaligining nufuzli tarmoklarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlashdan iborat bo'ldi. Hozirgi kunda o'zbekistonlik talabalar o'z tanlagan ixtisosligi bo'yicha AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiyaning jahonga mashhur oliy o'quv yurtlarida muvaffaqiyatli tahsil olmoqdalar.

Mamlakat Prezidentining «Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixining tagtomirigacha nazar tashlaymiz»², degan fikrlarida juda katta mantiq va ma'no bor. Biroq, sovetlar mustabid tuzumi sharoitida o'zbek milliy madaniyati haddan ortiq darajada ko'p zarar ko'rdi. Barcha mustamlakachilar kabi kommunistik mafkura maddohlari ham o'zbek xalqini qul qilish uchun, eng avvalo, shu xalqning milliy madaniyatini yo'q qilishga zo'r berdilar. O'zbekiston Milliy universiteti, «Kamolot» yoshlar jamg'armasi bilan hamkorlikda 1999—2000 yillarda bo'lib o'tgan «Nihol» talaba yoshlar teatr studiyasining festivallari respublika madaniy hayotida katta voqea bo'ldi.

Umuman, so'nggi vaqtlarda respublika teatrlari har yili 130 dan ortiq mavzu va janrlarda spektakllar sahnalashtirdi. Hamza nomidagi teatrdagi «Piri koinot», Farg'ona viloyati YU. Shakarjonov nomidagi musiqali drama teatrida «Imom

¹ Ergashev K. O'zbekiston xalqi ta'limining rivojlanish tarixi. -T., 1998. 64 - bet.

² Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T.: Sharq, 1998. 18-bet.

Buxoriy», Andijon viloyati Y. Oxunboboev nomidagi musiqali drama teatrida «Alpomishning qaytishi», Xorazm viloyati Ogaxiy nomidagi musiqali drama teatrida «Jaloliddin Manguberdi» kabi asarlarning sahnalashtirilishi o'zbek milliy sahna san'atining rivojlanishiga ma'lum hissa bo'lib qo'shildi¹.

O'zbekiston hukumati xalqimizning milliy qo'shiqchilikka bo'lgan ijtimoiy ehtiyojini e'tiborga olib, milliy ruhdagi, xalqning ko'ngliga yaqin musiqa asarlarini yaratishga bo'lgan qiziqishni muntazam ravishda rag'batlantirib kelmoqda. Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq musiqa san'ati bo'yicha qator ko'riktanlovlar o'tkazila boshladi. Xususan, 1992- yil mart oyida Toshkent shahrida tanbur, setor, qo'shnay, surnay va boshqa milliy soz ijrochilarining «Asrlarga tengdosh navolar» deb nomlangan respublika ko'rik tanlovi o'tkazildi. 1992- yil may oyida Xorazm viloyatida bo'lib o'tgan folklor jamoalari, askiyachi, qiziqchi va masxarabozlarning ko'rik tanlovi, iyun oyida Qo'qonda o'tkazilgan IX an'anaviy lapar, yalla ijrochilari tanlovi va boshqa shu kabi tadbirkorlar milliy san'atimiz rivojiga katta xissa bo'lib qo'shildi.

1995- yil dekabrda «O'zbekiston — Vatanim manim» mavzuidagi qo'shiqlar ko'rik-tanlovi e'lon qilindi. Mazkur tanlov barcha viloyat, shahar va tumanlarda juda katta ko'tarinkilik ruhida o'tkazildi va uning natijasida yuzlab yangi qo'shiqlar yaratildi.

«O'zbekiston — Vatanim manim» qo'shiq ko'rik-tanlovining 1996- yil mart oyida bo'lib o'tgan birinchi bosqichida 54 mingdan ortiq san'atkorlar ishtirok etdi, 10 mingdan ortiq yangi musiqiy asarlar yaratildi. Bularning barchasini e'tiborga olib, 1996- yil avgustida «O'zbekiston — Vatanim manim» qo'shiq bayrami haqida maxsus farmon qabul qilindi. Farmonda har yili avgust oyining uchinchi yakshanbasi «O'zbekiston — Vatanim manim» qo'shiq bayrami kuni deb belgilab qo'yildi. Ayni paytda, xalqimizning qo'shiqchilik san'atiga bo'lgan katta qiziqishini e'tiborga olib, Madaniyat ishlari vazirligi huzurida «O'zbeknavo» gastrol-konsert birlashmasi tashkil etildi.

Natijada, mazkur ko'rik-tanlov hozirda ommaviy tus oldi, unda nafaqat o'zbek

¹ O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligining joriy arxivi.

milliy, shu bilan birga, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan boshqa barcha xalqlar vakillarining erkin ijod qilishi, o'z san'atlarini namoyish etish imkoniyati yaratildi. Professional va xalq badiiy ijodiyoti asosida san'atning qo'shiqchilik turiga teng e'tibor berilishi, ularning uyg'un rivojlanishiga sharoit yaratilishi tufayli mazkur san'at turi rivoj topmoqda.

Istiqlolning dastlabki davrlaridanoq muzeylar, qo'riqxonalarining o'rni va rolini belgilab berishga alohida e'tibor qaratildi. Ma'lumki, hozirda birgina Madaniyat ishlari vazirligi tizimida turli sohalar bo'yicha 68 ta muzey mavjud bo'lib, ular — 21 ta o'lkashunoslik, 10 ta badiiy, 14 ta memorial, 5 ta adabiy-memorial, 7 ta badiiy, 1 ta tabiiy-ilmiy muzeylardir.

Shu bilan birga, Samarqandda Davlat muzey-qo'riqxonasi, Buxoroda Davlat muzey-qo'riqxonasi, Xivada «Ichon-Qal'a» Davlat muzey-qo'riqxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Birgina 1999 yidsa ularning asosiy fondiga 7544 ta eksponat qabul qilindi. Shu yilning o'zida barcha muzeylarga 1655400 kishi tashrif buyurdi.

Xalqimizning milliy o'zligini anglash jarayonini yanada jadallashtirishni nazarda tutib, 1994- yil 23- dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Respublika muzeylari faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 1999-yil 5- dekabrda esa «Muzeylar faoliyati qo'llab-quvvatlash masalalari to'g'risida»gi qarorlarini e'lon qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998- yil 12- yanvardagi «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi farmoni esa muzeylar ishida tubdan burilish yasadi. Unga binoan barcha turdagi muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish, Qo'llab-quvvatlash va ularga zarur ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatishni ta'minlash maqsadida Madaniyat ishlari vazirligi qoshida «O'zbek muzey» jamg'armasi tashkil etildi, o'zbek, ingliz, rus tillarida chop etiladigan ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy, rangli «Moziydan sado» jurnali ta'sis etildi.

Ko'rilgan barcha tadbirlar natijasida muzeylarning ijtimoiy-madaniy ahamiyati ancha oshdi, ularning o'zbek xalqi milliy o'zligini anglash jarayonidagi roli kuchaydi. Muzeylarga e'tibor xorijlik fuqarolarning O'zbekistonga, uning boy va qadimiy madaniyatiga bo'lgan qiziqishini oshirdi. Istiqlol o'zbek xalqiga o'z

milliy adabiyotini qaytarib berdi.

Diniy manbalar, mumtoz adabiyotni siyosiy-mafkuraviy aqidalarsiz o'rganishga nisbatan bo'lgan munosabatning ijobiy hal etilishi jamiyatni ma'naviy barqarorlashtirishga shart-sharoitlar yaratdi.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda milliy istiqpol g'oyasi va milliy mafkuraga nisbatan ijtimoiy munosabatning tubdan o'zgarishi juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Darhaqiqat, hozirgi sharoitda milliy mafkura va milliy istiqol g'oyasi to'g'risidagi bizning bilim va tasavvurimiz tubdan, sifat jihatdan o'zgardi.

Buning o'ziga xos sabablari bo'lib, avvalo ta'kidlash lozimki, sovet mustabid tizimi sharoitida madaniyat va mafkura masalasi nisbati jiddiy buzilgan edi. O'sha davrlarda mafkura to'g'risidagi bizning nuqtai nazarimiz «kommunistik ideologiya»nigina taqozo etar va undan nariga o'tmas edi. Bundan tashqari, madaniyat va mafkura tushunchalari o'rtasidagi nisbatda ikkinchisiga ustuvorlik sifati berilar va shu bilan milliy madaniyatlar, jumladan, o'zbek madaniyati haddan tashqari kamsitilgan edi.

Mustaqillik esa ana shunday ayanchli xolatga chek qo'ydi. Endi birlamchilik bevosita ma'naviyat sohasiga berildi. Mafkura, xususan, milliy mafkura va milliy istiqol g'oyasi esa milliy madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri ekanligi to'g'risidagi ilmiy hamda jamoatchilik fikri ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. Mazkur masalaga juda katga ahamiyat bergan mamlakat Prezidenti Islom Karimov biz barpo etayotgan «yangi jamiyat yuksak ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga tayanadi va ularni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Bu jarayon milliy istiqol g'oyasi mafkurasiga o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga asoslanadi» degan edi¹.

Mamlakat ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida madaniyat va milliy istiqol g'oyasi mafkurasiga o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik tobora ortib bormoqda. Bir tomonda, jamiyat ijtimoiy-madaniy, siyosiy barqarorligini ta'minlashda milliy istiqpol g'oyasi va mafkura roli tobora ortib borgani kabi, boshqa tomondan, mazkur qadriyatlar ijtimoiy

¹ Karimov I. Milliy istiqol mafkurasiga - xalq e'tiqodi va uzoq kelajakka ishongandir.- T.: "O'zbekiston", 2000. 18-bet.

ahamiyatini keng targ'ib etishda madaniyat muassasalarining o'rni yanada kuchaymoqda. Darhaqiqat, madaniyat muassasalari «mafkurani shakllantirish va xalqimiz ongiga singdirishda katta imkoniyatlarga ega. Bunda kutubxona, teatr, klublar, madaniyat uylari va saroylari, istirohat bog'lari, muzeylar va boshqa muassasalar ahamiyatidan keng foydalanish, kishilar dunyoqarashini yuksaltiradigan ruhiy-ma'naviy oziq beradigan tadbirlar majmuini ishlab chiqishga» alohida ahamiyat bermoqda¹.

Madaniy-ma'rifiy muassasasi insonni ixtiyoriy asoslarda, unga doimiy hurmat va ishonch ruxida ijtimoiy-ijodiy faoliyatga tortadi. Madaniy-ma'rifiy faoliyat hamma vaqt to'la ixtiyoriylik tamoyillari asosida ko'riladi. Agar mehnat jamoalarida insonning faoliyati ba'zan sof moddiy sabablarga ko'ra belgilansa, madaniy-ma'rifiy faoliyatda, birinchi navbatda, faoliyatning mazmuniga qiziqish asosida namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, madaniy-ma'rifiy muassasa jamoasi shaxsning ma'naviy-ijodiy qobiliyatini namoyon qilish va rivojlantirish uchun erkinlik beradi. Bu tamoyilning ahamiyati madaniy-ma'rifiy muassasasiga qatnashishning ixtiyoriyligi, u yoki bu madaniy-ma'rifiy uyushmalarida ishtirok etishni tan olish bilan cheklanib qolmaydi. Ixtiyoriylik madaniy-ma'rifiy muassasalari tomonidan taklif qilinadigan ko'plab faoliyat turlaridan birini erkin tanlab olish imkoniyatini aks ettiradi va shaxsning bo'sh vaqt sharoitida o'z ijtimoiy-madaniy faoliyatining mazmunini o'zi tomonidan belgilab olishini ifodalaydi.

Hozirgi zamon madaniy-ma'rifiy ishlari ko'lamining muttasil oshib borishi va murakkablashuvi undan turli soxalarning o'zaro aloqasini, ilmiy asosda markazlashgan, rejali boshqaruvni talab etadi. Ilmiylik tamoyili madaniy-ma'rifiy faoliyatning ko'zga ko'ringan tamoyillaridan biri xisoblanadi. U madaniy-ma'rifiy faoliyatda tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, shakli va uslublarini qo'llashni, bir-biriga yaqin fanlar – pedagogika, psixologiya, san'atshunoslik, estetika, iqtisodiyot va boshqaruv nazariyasining yutuqlaridan foydalanishni talab etadi.

¹ Milliy istiqlol g'oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.: "O'zbekiston", 2000. 64-bet.

1.2. Sog'lom mafkurali inson shaxsiga qo'yiladigan talablar tasnifi.

O'zbekiston Prezidenti tomonidan ta'kidlab kelinayotganidek, har qaysi jamiyat, har qaysi davlat va «millat nainki tabiiy zamini, yer osti va yer usti zahiralari, tog'lari va o'rmonlari, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda yuksak madaniyatli va manaviyatli insonlari bilan ham kuchlidir.

El-yurtiga, vataniga sadoqatli, iymon-e'tiqodi butun, mard va jasur, malakasi yetuk, ma'naviyati yuksak insonlar, barkamol avlod har qaysi davlatning qudratli salohiyat manbaidir. Ana shunday noyob xislat va fazilatlarga ega bo'lgan insonlarni, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazgan xalq, albatta, kelajakka ochiq ko'z, katta ishonch, umid va ixlos bilan qaray oladi.

Ko'rinib turganidek, mustaqil O'zbekiston taraqqiyoti taqdirini ham ma'naviy jihatdan yetuk insonlar hal qiladi.

Inson kamoloti millat va mamlakat taraqqiyotiga asos bo'ladi. Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina O'zbekiston davlat mustaqilligi barqaror bo'ladi, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi, oldimizda turgan buyuk maqsadlarga erishamiz. "Oldimizda mustaqil buyuk davlat qurishdek murakkab va sharaflı vazifa turgan bir paytda bu ma'naviy qadriyatning ahamiyati ming karra ortdi. Nega deganda, har qanday ulug' maqsadlarga yetishish, yangi jamiyat, farovon turmush qurish, inson zotiga munosib go'zal hayot barpo etish, avvalo, shu jamiyat a'zolari bo'lgan komil odamlarga, kelajak barkamol avlodiga bog'liqdir".¹

Kamolotga erishgan inson deganda mukammal tarbiyali, boshqalarga takabburlik qilmaydigan, hech kimga haqorat ko'zi bilan qaramaydigan, yolg'on so'zlamaydigan, rostgo'y, bag'rikeng, saxovatli, muruvvatli odam ko'z o'ngimizda gavdalanadi.

Kamolotga erishgan inson insonlar ichra eng sarasi, a'lo xulqlisi, o'zidan kattalarga hurmat-e'tiborli, kichiklarga shafqatli va marhamatli, kular ko'zli, shirin so'zli va xushmuomilalisidir.

Kamolotga erishgan, madaniyatli, ma'naviyatli inson va'dasiga vafo qiladi, omonatga xiyonat qilmaydi, birovlarini dog'da qoldirmaydi, so'zida sobit turadi, ig'vo,

¹ KarimovI. Istiqlol va ma'naviyat. -T.: "O'zbekiston", 1994. 127-bet.

g'iybat, munofiqlikdan o'zini saqlaydi, yomon yo'llardan, yaramas ishlardan, nojo'ya harakatlardan o'zini tiyadi. Bunday inson ota-onasining hurmatini bajo keltiradi, ularni o'zidan rozi qilishga sa'y-harakat qiladi, farzandlari, butun oila azolariga mehribonlik ko'rsatadi, qarindosh-urug'lardan aloqasini uzmaydi, mahalla-ko'yi, qishloqdoshlari, jamoasi, xullas kalom, tevarak-atrofini o'rab olgan jamiki insonlar farovonligi haqida qayg'uradi. Ularga mehr-muhabbatli bo'ladi, ulardan xizmatini ayamaydi, muruvvatini ta'na qilmaydi, odamlarga yaxshilik qilish, ezgulik ko'rsatishni insoniylik burchi, vazifasi, mas'uliyati deb biladi va faxrlanadi.

Ma'naviy-axloqiy barkamol inson elim-yurtim, xalqim, millatim deb kuyib-yonib yashaydi. Vatani taraqqiyoti va istiqboli uchun ozmi-ko'pmi hissa qushishni faxr-iftixor, shon-sharaf, oliy baxt deb chuqur his etadi. Vatanni sajdagoh kabi muqaddas deb biladi, Vatan tuyg'usi, Vatan ishq, Vataniy mehr-muhabbat bilan to'lib-toshib yashaydi.

O'zligini anglab yetgan har bir inson, milliy qadriyatlarni, an'analarni va urf-odatlarini, bobokalonlarining durdona so'zlarini, diniy, dunyoviy, falsafiy ta'limotlarni, hikmatlarini obi-kavsardek e'zozlaydi, ulardan o'zi uchun ta'lim-tarbiya, muhim hayotiy saboq, yo'l-yo'riq oladi.

O'z nasl-nasabi, kechmish tarixi, boy madaniy-ma'naviy merosi bilan faxrlanish, milliy rasm-rusmlarini, oilaviy an'alarini avaylab saqlash va boytishi, ota-bobolarining muborak nomlariga dog' tushirmaslikka intilish, o'z mehnati, aql-idrok va tafakkuri, intellektual salohiyati bilan ajdodlari obro'sini tushirmaslikka harakat qilish, odamlarning hurmat-ehtiromiga sazovor bo'lish insonning kamolotga yetganligining muhim belgilaridandir.

Ma'naviy barkamollik ma'no-mazmuni aytib o'tilganlardangina iborat emas. "O'zbekistonga, uning yeri, tabiatiga, bu yerda yashayotgan xalqlarga muhabbat, o'lkaning tarixi, madaniyati, an'alarini teran bilib olishga intilish, respublikaning qudrati va yutuqlaridan faxrlanish, xalqimiz qismatiga tushgan qiyinchiliklar uchun qayg'urish"¹ ham inson ma'naviy kamolotining namoyon bo'lish shakllaridan bo'lib hisoblanadi.

¹ Karimov I. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura, 3 -jild, -T.: "O'zbekiston", 1996. 83-bet.

Bunga yana Asosiy Qonunimiz - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini hurmat qilish va unga sadoqat namunalarini amalda ko'rsatish, shuningdek, mustaqillikning muqaddas ramzlari -Davlat Gerbi, Davlat Bayrog'i, Davlat Madhiyasini O'zbekiston xalqlarining shon-sharafi, g'ururi, ma'naviyatining eng muhim timsollari sifatida e'zozlash ham kiradi.

Insonparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini o'zida mujassam etish, o'z xalqini, millatini butun jahon hamjamiyatida tenglardan biri sifatida chuqur his qilish, buning bilan cheksiz faxrlanish haqiqiy insoniy kamolotga erishganlikning ko'rinishlaridan biridir.

Ma'naviy barkamollikni so'zning keng ma'nosida olganda inson ijtimoiy-ma'naviy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, aqliy va jismoniy faoliyat sohasidagi barcha tomonlari, qobiliyatlari va iste'dodlarining rivojlanishi va ro'yobga chiqishi ham deb tushunmoq lozim.

Har tomonlama rivojlanish, kamolotga erishish—insonning ijodiy kuchlari, barcha qobiliyat, iqtidor, iste'dod va salohiyatlari ro'yobga chiqishi, gullab-yashnashi, ishga solib yuborilishidir. Ma'lumki, insondagi qobiliyat va salohiyatdan to'la foydalanilgan taqdirdagina u rivojlanadi, kamolotga erishadi, shundagina jamiyat taraqqiy etadi, millat o'sadi:

Inson kamoloti—bu ham aqliy va jismoniy, ham g'oyaviy-siyosiy-huquqiy, ham madaniy-ma'naviy rivojlanishning uzviy birligidir. Ularning har biri alohida olganda inson barkamolligining muhim bir jihatini tashkil etadi. Agar inson faqat jismoniy jihatdan rivojlangan bo'lsa-yu, ammo aqliy, axloqiy, huquqiy, estetik, badiiy, g'oyaviy-siyosiy, madaniy-ma'naviy jabhalarda kamolotga erishgan bo'lmasa, uni har tomonlama emas, bir tomonlama rivojlangan deyish mumkin. Ana shu jihatdan olganda Prezident Islom Karimovning Oliy Majlis birinchi sessiyasida "O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari" ma'ruzasidagi ushbu fikrlari alohida ahamiyatga ega: "Biz sog'lom avlodni tarbiyalab. voyaga yetkazishimiz kerak. Sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'lomlikni emas. balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz"

Nafaqat o'z xalqi va millati, balki umuminsoniyat oldidagi burchini anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, umumbashariyat baxtini o'z baxti deb bilish ham inson ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Ma'naviy kamolotga erishgan inson o'zining savobli ishlari bilan kechirgan hayotidan rozi ketadi. Xullas, "Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikri-o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo'ladi"¹.

Islom Karimov asarlarida bayon etilgan ilmiy-nazariy qoidalar va xulosalarga asoslanib aytadigan bo'lsak, ma'naviy barkamol insonning asosiy belgilari insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, bilimdonlik, mehnatsevarlik, oqilu-donolik, halollik, to'g'rilik, xalqqa, Vatanga, insonga muhabbat va sadoqat, kattalarga hurmat va kichiklarga shafqat, ota-onani hurmatlash, tabiatni asrab-avaylash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, elim, yurtim deb kuyib-yonib yashash va faollik, o'zligini anglash va boshqa shunga o'xshashlardan iborat.

Ma'naviy barkamol inson haqidagi fikr-mulohazalar, g'oyalar, ta'limotlar, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy fikrlar tarixda kuni kecha paydo bo'lgan emas. U o'zining uzoq tarixi va qadimiy ildizlariga ega. Darhaqiqat, kishilik jamiyati tarixining biron-bir bosqichida insonning taqdiriga befarq qaragan, uning dardiga dardkashlik, qayg'usiga hamdardlik qilmagan, baxt-istiqboli va kamoloti uchun jon kuydirmagan bironta ham faylasufu huquqshunos, olimu ulamo bo'lgan emas. Insonni sharaflash, har zamon va har lahzada ulug' va mukarramligani uning o'ziga eslatish, yovuz, qabih ishlar va nojo'ya qilmishqlardan saqlanib turish, shu tariqa komil insonning o'ziga xos axloq kodeksini, ta'limotlar tizimini ishlab chiqish va o'z asarlarida aks ettirish borasida Sharq mutafakkirlari bebaho ishlarni amalga oshirganlar.

Komil inson haqidagi masala Sharq falsafasida azaldan katta o'rin tutib kelganligini Islom Karimov respublika Oliy Majlisining birinchi anjumanidagi

¹ Karimov I. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild, -T.: "O'zbekiston", 1999. 134-bet.

ma'ruzasida shunday ifodalaydi: "Qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aytsak, Sharqona axloq Kodeksini ishlab chiqqanlar".

Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Ismoil Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Bobur, Abdulqodir Bedil singari buyuk allamolarning falsafiy, diniy-axloqiy meroslariga nazar tashlasak, ma'naviy barkamol insonlar, ularning umumiy xislatlari, fazilatlariga haqida butun bir axloqiy talablar majmuasi, Sharqona axloq Kodeksi ishlab chiqilganini ko'ramiz. Inson shunchalik ulug'ligi, buyuk aql-zakovati bilan mo'jizalar yaratishga qodir bo'lgani holda yana nima sababdan tuban ishlarga qo'l uradi, hirsu nafs domiga tushib o'zini harob etadi, degan savollar Sharq mutafakkirlari qalbini qadimdan bezovta qilib kelgan. Shuning uchun ham buyuk tafakkur daholari insonning o'z-o'zini anglashi, o'zini kamol toptirishi, tarbiyalanib, noqisliklar va illatlardan xalos bo'lishi masalasiga o'z asarlarida jiddiy e'tibor berganlar. "Sharq mutaffakkirlari nazdida insonda ikki asos mavjud: bir tomondan, u ilohiy, ruhiy qudrat, ikkinchi tomondan, moddiy, hayvoniy quvvat. Hayvoniy quvvat deganda olimlarimiz tabiatdagi to'rt unurni, ya'ni: tuproq, suv, havo, olovni anglaganlar. Bir-biriga zid bo'lgan bu to'rt unsur ayni vaqtda bir-biri bilan muvofiq kelib, barcha biologik quvvatlarni harakatga keltiradi. Tirik mavjudotning bari shu to'rt unsur hikmatidan iborat, amyo insonda qolgan tirik mavjudotlardan farqli o'laroq ruhi notiq, ya'ni ilohiy ruh bor... Insondagi ana shu ilohiy ruh hamisha uning tabiiy asosi, ya'ni to'rt unsurdan iborat jismi bilan kurashadi. Ruh qancha yuksalsa, u shuncha martabalarga erishaveradi va Mutlaq mohiyat tomon boraveradi... Inson ruhi Mutlaq ruhning bir qismi bo'lganligi bois u moddiy tubanlikni tark etishi, Iloh sari parvoz qilishi kerak. Buning uchun inson o'z Insonligani idrok etib, botiniy olamini poklab, ma'rifat nurlariga to'ldirib borishi shart"¹.

Sharq falsafasida, xususan, tasavvuf ta'limotida komil insonlar o'zida odillik, oqillik, fozillik, faqirlik, insofu diyonatni jo qilgan, pok yeb, pok yashagan, harom-xarishdan jirkangan, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, fayzu karomatdan serob, qalbi ezgu tuyg'ularga limmo-lim pokiza zotlar sifatida e'zozlangan.

¹ Komilov N. Kamolot ilmi-Komil inson haqida to'rt risola. -T.: "Ma'naviyat", 1997. 4-bet.

Atoqli olim N. Komilov komil inson haqida tasavvuf ta'limoti mohiyati ustida fikr yuritib, unda to'rt malak - Jabroil, Makoil, Isrofil va Azroil xislati, Xizarning payg'ambarligi, oftobning saxovati mavjud deb tasavvur etadilar, deydi. U yana davom etib shunday yozadi: "Komil inson, shunday qilib odamzod orzu qilgan jamiki ezgu xislatlarning ifodachisi, u go'yo Mutlaq iloh bilan insoniyat o'rtasida vosita bo'luvchi muqaddas xilqat. Bunday martabaga musharraf insonlarni valiulloh, qibla, qutb, g'avs (madadkor), avtod (ustunlar), abdol (badal qilingan) deb ham ulug'laganlar. Mo'tabar kitoblarda naql qiladilarkim, dunyo shunday zotlar tufayli barqaror» va osoyishtadir... Dunyoning tinchligi va farovonligi, insoniyat butunligi haqiqatdan ham, dono va oqil, pok niyatli odamlar faoliyatiga bog'liq. Ya'ni iloxiy poklik va nafosat, e'tiqod va tafakkur bizni balo-qazolardan asraydi, hayotni avaylab, saqlab turadi"¹.

Shu boisdan ham Sharq mutafakkirlari komil inson jamiki insonlarning haqiqati, ya'ni odamiylar odamiysi ekanligi haqidagi konsepsiyani ishlab chiqqanlar, insonning kamolot yo'lini ilmiy yoritganlar. Buni buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy ta'limoti misolida ko'rish mumkin. Insonning yashashdan asl maqsadi zavqli-lazzatli, huzur-halovatli, baxtli-saodatli umr kechirishdan iboratdir, degan g'oya uning falsafiy ta'limotida ustuvorlik qiladi. Shu bois ul zot "Insonning mohiyati haqiqiy baxt-saodatga erishuv ekan, inson bu maqsadni o'zining oliy g'oyasi va istagiga aylantirib, bu yo'lda barcha imkoniyatlardan foydalansa, u baxt-saodatga erishadi"², deb uqtirgan edi.

Forobiyning ta'kidlashicha, inson, avvalo, baxt-saodatning nima va nimalardan iboratligani bilishi, unga erishuvni o'ziga oliy maqsad qilib olishi, keyin unga olib boradigan ish — amal va vositalar nimalardan iboratligini bilishi zarur. U insonlar jamoasisiz odamlar baxt-saodatli bo'lishi mumkin emasligani bundan ming yil osha narida turib bashorat qilgan edi: "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muxtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning

¹ Komilov N. Tasavvuf., Birinchi kitob. -T.: "Yozuvchi", 1996. 143-144-betlar.

² Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashryoti, 1993. 188-bet.

birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rناshdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi"¹.

Har bir insonning tug'ma tabiatida, allomaning fikricha, o'zidan boshqa kishilar bilan doimiy ravishda munosabatda bo'lish, o'zaro aloqa qilish hissiyoti bor. Kamolotga erishuvda inson boshqalarning ko'maklashuvlariga va ular bilan birlashuvga muhtojdir. Mana shu ko'maklashuv va birlashuv jarayonida inson o'zining maqsadiga erishadi, kamolotga yetadi.

Forobiyning tasavvuridagi jamiyatning har bir a'zosi mansabi, tutgan o'rni, ya'ni kim bo'lishidan qat'i nazar fozil ma'naviyatli, ma'rifatli insondir. Fozil inson o'z davlatining qonun - qoidalarini yaxshi biladi, unga amal qiladi, fikrlaydi, lozim bo'lganda Vatani uchun jon fido qiladi. Unda sharqona nazokat, mehr-oqibat mujassamdir.

Komil inson haqidagi falsafiy g'oyalar Sharqning buyuk mutaffakiri Abu Ali ibn Sino ta'limotida ham katta o'rin egallaydi. Uning "Davolash kitobi", "Tib qonunlari kitobi", "Adolat kitobi", "Donishnoma", "Najot", "Salamon va Ibsol" nomli nodir asarlarida inson kamolotida ilm asoslarini egallashning, odamlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va hamjihatlikning, oila ta'lim-tarbiyasining, nafsni pokiza tutishning, ochko'zlik, o'g'rilik, bo'hton, tuhmat, aldamchilik qilmaslikning ahamiyati haqidagi falsafiy masalalar o'z ifodasini topgan. "Shifo" kitobida aytishicha, kishi boshqalarning ehtiyojini qondirish uchun yashaydi, mehnat qiladi, o'z navbatida boshqalar ham shunday faoliyat ko'rsatadi. Birov ko'chat o'tqazadi, birov oziq-ovqat tayyorlaydi, birov kiyim-kechak, boshqa birov yana boshqa xil, ko'pchilik uchun zarur bo'lgan yumushni bajaradi. Shunday qilib, har bir kishi jamiyat a'zolari uchun ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'ladi. Shu tariqa kamolotga erisha boshlaydi.

Abu Ali Ibn Sino to'g'ri so'zlash va to'g'ri ishlashni, halol, pok mehnat qilishni, hammaga insof, adolat bilan muomala qilishni, nafsga berilmaslikni, olim-fozillar

¹ Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. -T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashryoti, 1993, 188-bet

bilan suhbatlashishni, kattalarning izzat-hurmatlarini bajo keltirishni, chin va samimiy do'stlikni, muhtojlarga yordam berish va in'om-ehson etishni unutmaslikni hamma eziguliklarning manbai, haqiqiy insoniylik belgisidir, deb aytgan edi.

Komil inson, uning asosiy xislat va fazilatlari haqidagi masalalar XII-XIII asrlar davomida yashagan Fariddin Attor, Sulton Vallad, Aziziddin Nasafiy kabi ulug' siymolar asarlarida ham alohida o'rin egallaydi.

Aziziddin Nasafiy "Komil inson" risolasida insonga quyidagicha ta'rif beradi: "Bilgilki, Komil inson deb shariat, tariqat va haqiqatda yetuk bo'lgan odamga aytadilar, agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to'rt narsa kamolga yetgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloqqa maorif... Bu sifatlar bilan ziynatlangan odam yolg'on, riyo va badkorliqdan chekinadi, hamma vaqt ezgu niyat bilan ezgu ishlarga tayyor turadi... Kimki o'zida shu sifatlarni kamol toptirsa, u kamolotga erishadi"¹.

Hazrat Alisher Navoiy komil insonlar haqidagi ta'limotni o'z salaflariga nisbatan ancha rivojlantirib va ijodiy boyitib, bu masalada ko'pchilik asarlarida o'zining qimmatli fikrlarini bayon etdi. "Mahbub ul-qulub" asarida "Odam ikki dunyoning eng aziz va sharaf mahluqidir", degan so'zni keltiradi. Uning aytishicha, Parvardigorning olamni yaratishdan maqsadi Inson edi.

Navoiyda inson oliy mavjudot deb ta'riflanadi. Inson olamdagi jamiki mavjudotlardan ustun turadi. Buyukliqsa unga teng keladigan hech narsa yo'q. Olam Parvardigor husnu jamoli uchun ko'zgu bo'lsa, Inson bu ko'zguning mazhari — Tangri taolo qudrati mo'jizasidir.

Navoiy asarlarida halollik, rostgo'ylik, iymon-e'tiqodlilik, ochiq ko'ngillik, xalq g'amini o'z g'ami deb qayg'urishlik singari insonga yarashqlik axloqiy-ma'naviy fazilatlar e'zozlanadi, xudbin, qora ko'ngil, hasadchi, xalqqa nafi emas, zarari tegadiganlar esa qoralanadi. Xalq baxt-saodati yo'lida kurashadigan, o'zi pok, so'zi pok, dili pok odamlar haqiqiy Inson, deb ta'riflanadi.

Navoiy ilm-ma'rifatni ulug'laydi. "Hayrat ul-abror"da olimu ulamolarni hurmat

¹ Qarang: N. Komilov. Ko'rsatilgan asar. 147-148-betlar.

qilish zarurligini uqtirib, "birovki qilsa olimlarga ta'zim, qilar go'yoki payg'ambarga ta'zim" ta'kidlaydi. Olimlarni payg'ambarlarga o'xshatadi.

Alisher Navoiy "Nasoyimul muhabbat" asarida komil insonga xos xususiyatlar, uning sharqona xislat va fazilatlarini batafsil sanab o'tgan. Bu xususiyatlar uning fikricha, halol luqma bilan qanoatlanish, shariat qoidalariga rioya etish, muloyim tilli, saxiy bo'lish, sadoqatli, vafoli bo'lishdan iborat.

Sharq mutaffakirlari komil inson haqida o'ziga xos axloq Kodeksini ishlab chiqish asosida insonparvarlik to'g'risidagi milliy va umumbashariy qadriyatlar rivojlanishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. Ularning komil inson haqidagi g'oyalari, o'y-fikrlari hech qachon rivojlanishdan to'xtagan emas, balki tillardan tillarga ko'chgan, asrlardan asrlarga o'tgan.

Shunday qilib, komil inson haqidagi g'oyalar, qarashlar va ta'limotlar xalqimiz, millatimizning qalbida, qonida bir necha ming yillar davomida shakllangan, sayqal topgan. Demak, barkamol avlod, komil inson haqidagi hozirgi tasavvur va bilimlarimiz o'zining chuqur ma'naviy asoslari va qadimiy tarixiga ega.

Odamni ruhan poklanishga, qalban uyg'onishga, ichki dunyosini, iymon-e'tiqodini but qilishga xizmat qiladigan ma'naviyat ijtimoiy taraqqiyot mahsuli bo'lsa ham, o'z navbatida jamiyat taraqqiyotiga nihoyatda katta ta'sir ko'rsatadigan muhim omildir. Inson madaniy-ma'naviy, axloqiy, jismoniy, g'oyaviy, siyosiy jihatdan qanchalik barkamol bo'lsa, mehnatsevarlik, xalqparvarlik e'tiqodi kuchli bo'lsa, u mansub bo'lgan jamiyat, xalq va millatning istiqboli shunchalik nurafshon bo'ladi.

Mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ham ko'proq kuchga ega bo'lib hozirgi paytda kadrlarning saviyasiga, iymon-e'tiqodi, irodasi butunligiga, qobiliyati va zehn-zakovotiga, mustaqil va erkin fikrlashiga, ularning zamon va taraqqiyot talablariga nechog'lik javob berishlariga ko'p narsa bog'liq bo'lib qoldi. Yurtimizning ertangi hayoti va taqdiri, islohotlarning samarasi avvalombor insonning ma'naviy barkamolligiga borib taqalishini har bir odam chuqur anglab yetmog'i lozim. "Demak, bugungi kunda g'oyani, fikrni taqiq bilan, ma'muriy choralar bilan yengib bo'lmaydi. G'oyaga qarshi faqat g'oya. Fikrga qarshi faqat fikr. Jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirisha olishi mumkin.

Har bir inson, har bir fuqaro buni yaxshi tushunib, mag'iz-mag'izig'a yetib olishi kerak"¹.

O'z haq-huquqlarini yaxshi taniydigan, boqimandalikning har qanday ko'rinishlarini o'zi uchun or deb biladigan sog'lom, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish oldimizda turgan nihoyatda muhim kelajagimizni hal qiladigan vazifadir.

Butun dunyo hamjamiyati bizning buyuk tariximiz, ilmimiz, madaniyatimiz va manaviyatimizni allaqachon e'tirof etgan va uni hurmat qiladi. "Hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganligini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqsan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko'rku fayzini, mahobatini yo'qotmagan osori-atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik san'ati yuksak bo'lganidan dalolat beradi... Bugun kutubxonlarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi. Shuning uchun ham bu borada jahonning sanoqli mamlakatlarigina biz bilan bellasha olishi mumkin, deb dadil ayta olaman"¹.

Aytib o'tilgan fikr-mulohazalardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- ma'naviyat, ma'rifat, odob-axloq masalasida mavjud bo'lgan xilma-xil fikrlar, g'oyalar, qoidalar, o'git va dasturlar Sharqda, xususan, Markaziy Osiyoda yaratilgan ilmiy tafakkurdur donalari va ta'limotlarning eng sarasi, ajralmas tarkibiy qismidir;

- har qanday buyuk kashfiyotlar, ulkan ta'limotlar va yangiliklar singari odob-axloq haqidagi sharqona, o'zbekona qonun-qoidalar, ma'naviyat va ma'rifatga oid qimmatli o'gitlar, dastur va tuzuklar, fikr-mulohazalar, qarashlar ham hech qachon

o'z-o'zidan vujudga kelgan emas;

- har qanday odob-axloq qoidalari kabi ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy qarashlar ham, shubhasiz, muayyan zaruriyat va qonuniyat asosida paydo bo'lib, rivojlanib, takomillashib boradi;

- odob va axloq qoidalarida bo'lgani singari ma'naviy-marifiy, siyosiy fikrlar va qarashlarda ham ayrim kishilarning xohish-irodasi emas, balki jamiyatning, xalq ommasining maqsad manfaatlari ifodalanadi;

- ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy, axloqiy qarashlar muayyan ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli bo'lsa ham, o'z navbatqsa jamiyat taraqqiyotiga nihoyatda katta ta'sir ko'rsatadigan muhim omil hamdir. Odamlarda bilim-ma'rifat qanchalik kuchli bo'lsa, axloq, odob, iymon, vijdon, halollik, mehnatsevarlik, baynalmilalchilik, insonparvarlik e'tiqodi, milliy g'urur tuyg'usi, burch va ma'suliyatni his qilish nechog'lik yuksak bo'lsa jamiyat taraqqiyoti shunchalik tezlashadi, osoyishtalik, hamjihatlik barqaror bo'ladi;

- jamiyat taraqqiyoti jarayonida har qanday qarashlar, tasavvurlar, fikrlar, nazariyalar va ta'limotlar singari ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy, axloqiy qarashlar ham yangicha mazmun bilan boyib, takomillashib boradi, ayrim qoidalar yangi zamon talabi bilan yangicha talqin etiladi;

- jamiyat taraqqiyotining har bir yangi bosqichi kishilarning ma'naviy ma'rifiy, axloqiy kamolotida ham yangi davrning yuzaga kelishidir;

- har bir yangi tuzum, davr, jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy qarashlar rivojiga ta'sir ko'rsatadi, unga yangicha mazmun va muayyan yo'nalish beradi. Shunga asosan ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy qarashlarning biror yangi tizimi, usullari, yo'l-yo'riqlari, dasturiy qoidalari yuzaga keladi;

- jahon madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan falsafa, eng qimmatli ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy, axloqiy boyliklar, tasavvur va qarashlar alohida bir xalq, elat va millatgagina emas, balki turli davr va sharoitlarda yashagan, yashab kelayotgan barcha xalqlarga, umuminsoniyatga ham to'la xosdir. Ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy qarashlar va ta'limotlar dunyoning barcha mamlakatlari va xalqlarida bo'lganidek,

Sharqda, Turonzamin va Turkistonda ham miloddan avvalgi bir necha asrlardan boshlab shakllana va rivojlana boshlagan;

- Markaziy Osiyo xalqqaarining, ayniqsa, o'zbeklarning madaniyati, ma'naviyati, ma'rifati ildizlari, falsafiy, siyosiy, diniy, axloqiy qarashlari shakllana borishining ilk davrlari qadim zamonlarga borib taqalishini xalq og'zaki va yozma ijodiyotining namunalaridan bilib olish mumkin.

"Avesto", "To'maris", "Shiroq", "Zariadr va Odatida", "Manas", "Alpomish" kabi qissalar va dostonlarda, miflar, ertaklar, matallar, rivoyatlarda, maqollar, topishmoqlarda o'tmish ajdodlarimizning tabiat, jamiyat, insoniyat dunyosi, olamning tuzshshshi, odamlar hayoti, urf-odatlar, an'analari, marosimlari, bayramlari, qadriyatlar haqidagi dastlabki qarashlari, tasavvurlari, munosabatlari, ishonch-e'tiqodlari o'z ifodasini topgan;

- Islom ta'limotida, uning Quroni Karim va Hadisi Sharif va boshqa manbalarida, tasavvuf tariqatida ma'naviyat va ma'rifatning, inson ma'naviy kamolotining, halollik va poklik, iymon va e'tiqod, ishonch va ixlos, mehnatsevarlik, insonparvarlik, ilmsevarlik, vatanparvarlik kabi diniy va dunyoviy masalalardan birontasi ham e'tibordan chetda qolmaganini ko'ramiz;

- ota-bobolarimiz dini bo'lgan islom xurofot, bid'at emas, balki odamlarni to'g'ri yo'lga boshlaydigan, haromdan hazar qilishga da'vat etadigan eng muhim ma'naviy omillardan biridir. Islom di«i quruq aqidalar yig'indisi emas, balki insonlar uchun iymon-e'tiqod, odob-axloq, diyonat, bilim-ma'rifatdir;

- ma'naviyat va ma'rifat, odob va axloq haqidagi tasavvurlar, fikrlar va qarashlar xech qachon rivojlanishdan to'xtab qolgan emas, balki jamiyatning ob'ektiv talab va ehtiyojlari asosida rivojlanib, mazmunan boyib, takomillashib borgan. Buni IX-XII va XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda ro'y bergan madaniy-ma'naviy yuksalish. aniqrog'i, birinchi va ikkinchi Uyg'onish davrlari misolida ko'rish mumkin. Ana shu davrlarda mintaqamizdan madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat haqida bashariyatni hali-hanuz lol qoldirib kelayotgan, ulkan ta'limot yaratgan buyuk muhaddislar, mashhur matematiklar, faylasuf va tasavvuf allomalari, jahon tan bergan tibbiyot olimlari, hukuqshunoslar, tarixchilar, g'azal mulkining

sultonlari, "Muallimisoniy" va "Shayxu, raislar" saf-saf bo'lib yetishdilar;

- XIX asrning ikkinchi yarimlaridan boshlab Turkistonning chorizm tomonidan bosib olinishi mahalliy xalqlarni madaniyatdan, ilm-fan va ma'rifatdan mahrum qilishga qaratilgan manqurtlik siyosatiga qarshi yuzaga kelgan ma'rifatparvarlik harakati xalqlarimiz ma'naviy-ma'rifiy fikrlar rivojida o'ziga xos yangi bosqich bo'ldi. Ahmad Donish, Avloniy, Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon singari olimu fuzalolarning asarlarida xalqlarimizning ma'naviyat va ma'rifat haqidagi ta'limotlari yangi tarixiy sharoitda ijodiy rivojlantirildi, zamon talablari asosida yangacha g'oya va mazmun bilan boyitildi. Xalqlarimiz ongi va tafakkurida hurriyat, erkinlik, ozodlik, mustaqillik, milliy istiqlol g'oyalarini chuqur singdirish, milliy g'urur va iftixorni shakllantirish va rivojlantirishda ma'rifatparvarlarning xizmatlari buyuk va bebahodir;

- O'zbekiston davlat mustaqilligi milliy ma'naviyatimiz va ma'rifatimizning ko'p asrlik takomillashuv tarixida tamomila yangi bosqichdir. Mustaqillik o'zbek xalqiga o'z yurtida boshini baland ko'tarib yurish, o'z madaniyati va an'ayalarini, qadr-qimmatini, dini va e'tiqodini, ona tili va ma'naviyatini qayta tiklash imkonini yaratdi.

Mustaqillikdan keyin o'tgan yillar tarix uchun bir lahza bo'lsada, O'zbekiston uchun butun bir tarixiy davr hisoblanadi. O'tgan davr ichida biz boshqa mamlakatlar o'n, hatto yuz yillar mobaynida o'tadigan yo'lni bosib o'tdik. Ana shu yillar davomida xalqimiz o'zining tarixini chuqur angladi, ajdodlaridan qolgan buyuk merosdan, diniy, axloqiy, falsafiy, qadriyatlardan bahramand bo'ldi. Biz buyuk kelajagimizning ma'naviy asoslarini belgilab oldik, milliy ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash va rivojlantirishda ulkan natijalarga erishdik.

Mustaqillik sharofati bilan o'zbek xalqi ma'naviyati, ma'rifati, yuksak odob-axloqi va madaniyatining qudratli qatlamlari ochildi, go'zal milliy an'analar tiklandi. Xalqimizning milliy ruhi uyg'ondi, uyg'onmoqda. Ma'naviyatimiz ko'zi ochilmoqda. Odamlar ongida milliy g'urur, ona zaminga mehr-muhabbat tuyg'ulari kamol topmoqda.

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritish va mustahkamlash ijtimoiy-siyosiy,

iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy-ma'naviy, ta'lim-tarbiyaviy islohotlarni amalga oshirish va chuqurlashtirish, barqaror bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liq bo'lgan qator dolzarb muammolarning hal etilish yo'llarini ilmiy-nazariy asoslab berish, istiqbolning - buyuk kelajakning aniq ilmiy rejalarini tuzib berish Prezident Islom Karimov nomi va faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. "Prezident Karimovning keyingi yillar faoliyati, uning sa'y-harakati bilan amalga oshirilayotgan ishlar, ichki va tashqi siyosatda tutgan o'rnini o'z taktikasi va strategiyasi bilan yangi davrning yangi rahbari sifatida shakllanib, nazariy va amaliy jihatdan mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Darhaqiqat, u mutlaqo yangi sharoitlarda vujudga kelgan, eng zamonaviy siyosat yurgizuvchi, yangicha tarixiy sharoitlarga mos ravishda ish tutadigan davlat arbobi. Ichki va tashqi g'animlarimiz, mamlakat taraqqiyotidan g'ashi kelayotgan muxoliflarimiz qanchalik ig'vogarona ishlar bilan shug'ullanishmasin, mustaqil O'zbekiston sha'niga, rahbariyati va xalqchil, milliy davlatchilik siyosatiga mutlaqo putur yetkaza olishmaydi".

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li", "O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura", "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin", "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir", "Bunyodkorlik yo'lidan", "Yangicha fikrlash va ishlash—davr talabi", "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", "O'zbekiston buyuk kelajak sari", "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori", "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", "Jamiyat mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin", "Adolat, vatan va xalq manfaati har narsadan ulug'", "O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqsamiz" nomli va boshqa asarlari, nutqlari, maqolalari, risolalari, suhbatlari, javoblarida ma'naviyat, ma'rifat, qadriyatlar haqida bayon etilgan nazariy yo'l-yo'riqlar va ta'limotlar juda katta ilmiy-amaliy, siyosiy, ta'lim va tarbiyaviy ahamiyatga molikdir. Mazkur kitoblar, shuningdek, nutqdar, ma'ruzalar o'zining mazmun-mohiyati bilan Islom Karimov ta'limotining nechog'li ilmiy asoslanganligi, nazariy puxta-pishiqligi, zamonaviyligi, tamomila yangiligi, amaliy jihatdan muhim va zarurligani ko'rsatib turibdi. Ma'naviyat-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, xalq maorifini yangicha asosda qayta tashkil etish haqidagi

Prezidentimiz g'oyalari va ta'limoti O'zbekiston davlat mustaqilligini mustahkamlashda dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Tabiiy savol tug'iladi: nega aynan istiqlol davri ma'naviy - ma'rifiy, tarixiy qadriyatlarga ehtiyoj sezdi?

Buning asosiy sabablari, jumladan, quyidagicha:

Birinchidan, yosh o'zbek jamiyati taqdiri xar qachongidan ko'ra, bugun o'zining tarixiy ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlariga bog'liq bo'lib qoldi. Buyuk mutafakkirlar ta'limotiga, boy milliy-umuminsoniy ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarga asoslangan holda O'zbekiston dunyoviy davlati o'z kamolotining yangi — Milliy Tiklanish bosqichiga qadam qo'ydi. Aslida bu tom ma'nodagi odamni odam, millatni millat, yurti yurt qiladigan, uning buyuk kelajagini ta'min etadigan, uni yangi sivilizatsiya sari boshlaydigan, milliy ongni yangicha mazmun bilan boyitib, zamonaviy jahoniy tafakkur darajasiga ko'taradigan ma'naviy tiklanish mohiyatidir. Zotan, milliy tiklanish, ma'naviy qadriyatlar, milliy o'zlikni anglashning tiklanishi hisoblanadi. "Biror-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarni, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi", deganida Islom Karimov haq edi. Shu sababli ham milliy istiqlol mafkurasi mohiyati tayin etayotganimiz hozirgi murakkab siyosiy-g'oyaviy jarayonda boy madaniy-ma'rifiy, ma'naviy-axloqiy merosimizni tiklashni, ular mohiyat-asoslarini istiqlol istiqboli jarayonlariga tatbiq etish rasman davlat siyosatiga aylantirildi, ularni tabiiy-mantiqiy, ijodiy jarayon sifatida milliy o'z-o'zini anglashning, ma'naviy-ruhiy ildizlarimizga qaytishimizning, ma'naviy tiklanishning manbai, deb bildik.

Milliy ma'naviy tiklanish mafkurasida, avval, tarixiy xotirani tiklash, shu orqali o'zbek ongini, milliy o'zlik g'ururini tarbiyalash bosh vazifa bo'ldi.

Ikkinchidan, ma'naviy Tiklanish umumjahoniy tafakkur, ong, madaniyat va sivilizatsiya sintezi sifatida mustaqil O'zbekistonning uyg'un kamolotida favqulotda jipslashtiruvchi ruhiy-mafkuraviy qudrat kasb etadi.

Ma'naviyat bilan jiddiy shug'ullanish, uni yuksaltirish va boyitish, milliy ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar mezoniga aylantirish orqali komil o'zbeklarni, o'zbekistonliklarni tarbiyalash, yurti barkamollashtirish, azaliy-

tarixiy kuch-qudrati va shuhratini tiklash, ravnaq toptirish, ozod va obod Vatan ma'naviyatini, ma'rifatini shakllantirish tabiiy bosh strategik maqsad bo'lib qoldi.

O'zbek jamiyati ma'naviyatni va uning mafkurasini ana shu tarzda muqaddas deb bildi va shunga munosib o'z istiqlol mafkurasi siyosatini rivojlanishining ma'naviy-ma'rifiy negizlarini ishlab chiqdi, xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash, rivojlantirishni davlat hamjamiyatining eng muhim vazifasi, deb belgiladi.

Milliy kamolotning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, ma'naviy-ma'rifiy merosni asrash, yangicha istiqlol madaniyatini shakllantirishda ulardan oqilona foydalanish orqali inson imkoniyatlarini erkin namoyon etishga ko'maklashish bilan bog'liq dolzarb ma'naviy-axloqiy mohiyatlar mafkuraviy yangilanishning asoslari qilib belgilandi.

O'zbek ma'naviyati uning jahoniy, insoniy qiyofasidir. O'zbek g'oyasi millatning ma'naviy-ruhiy, axloqiy-madaniy ko'rki, o'ziga egalik tuyg'usi, tarixiy va kelajak xotirasi, o'zbeklik dunyosi, olami, erki, qadr-qimmati, or-nomusi, sha'n-shavkati, g'urur-iftixoridir! Ha, O'zbekiston mustaqilligi, uning buyuk kelajagi tub mohiyati bilan yangi sivilizatsiyadir. U bashariyat kashf etgan sivilizatsiyalarning uzviy mantiqiy sintezi sifatida millatni yangi ma'rifiy-madaniy mohiyatlar kengliklariga olib chiqishi muqarrar.

II bob. Shaxs mafkurasini to'g'ri shakllantirish va tarbiyalashning pedagogik talqini

2.1. Jamiyatdagi turli mafkuraviy taxdidlarning shaxs taraqqiyotiga ta'siri.

XXI asr jahon siyosatchilari, iqtisodchilari, olimu mutaxassislar tomonidan turli xil nomlar bilan atalmoqda. Ayrimlari XXI asrni «axborot asri» desa, kimdir uni «aql-tafakkur», yana boshqasi «yuksak texnologiyalar», yana kimdir esa «integratsiya asri», deb atamoqda. Tabiiyki, ushbu fikrlarning barchasida asos bor. Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov esa XXI asrni «globallashuv davri», deb atashlari bejiz emas.

Globallashuv (globalizatsiya) — lotincha «glob» so'zidan olingan bo'lib, aynan uni «dumaloqlashuv», «kurralashuv» deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi¹.

Ta'kidlash lozimki, globallashuv bugunning natijasigina emas. Uning shakllanish jarayoni jahonda yuz bergan kapitalistik bozor munosabatlari natijasida vujudga kela boshladi. Ma'lumki, kapitalistik bozor munosabatlari ijtimoiy taraqqiyotga keng yo'l ochib berdi, avvallari odamzod tafakkur qila olmagan imkoniyatlar yuzaga keldi, inson tashabbusi, tadbirkorligi, shijoati, ixtirochiligi, kashfiyotlari paydo bo'ldi, rivojlandi, takomillashdi. Shuninguchun ham XVI—XX asrlarda XV asrgacha bo'lgan insoniyat taraqqiyotida yaratilgan moddiy-ma'naviy boyliklarga qaraganda bir necha marta ko'proq ne'matlar yaratildi. Bularning bari, shubhasiz, globallashuv natijasida yuzaga keldi.

Xo'sh, jahon miqyosida globallashuvning paydo bo'lishiga imkon bergan omillar nimalardan iborat? Ularning ayrimlarini sanab o'tamiz: temir yo'llar, okean kemalari, aviatsiya, radio, telefon, telegraf, televideniya, internet tizimi, yerning sun'iy yo'ldoshlari, kino, kundalik matbuot va boshqalar.

Globallashuvning ijobiy tomoni shundan iboratki, u xalqlar, davlatlarning milliy

¹ Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at.- Toshkent.; 2006. 70-bet.

madaniyati va iqtisodiyotlarining yaqinlashuvini tezlashtiradi, ularning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Globalizatsiyaning salbiy tomoni esa mayda etnik guruhlar va millatlarning madaniyati, tili, rasm-rusumlari jahon bo'ylab kuchayib borayotgan globallashuv jarayonlarida katta millatlar, yirik milliy madaniyatlar, boy tillar bilan raqobatlasha olmay, o'z-o'zidan faol ijtimoiy-iqtisodiy, lisoniy-zaboniy hayotdan chetga chiqib qolmoqda.

Yana shu narsani unutmaslik lozimki, globallashuv jarayonida dunyoda qator planetar muammolar yuzaga kelmoqda. Ularning ayrimlari quyidagilardan iborat:

- Yer yuzida yaxlit tenglikni saqlash, termoyadro urushining oldini olish va adolatli xalqaro iqtisodiy tartib o'rnatish, diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm muammosi;

- atrof-muhitni samarali muhofaza qilish, ekologiya muammolari;

- aholi soni va tarkibi bilan moddiy va ma'naviy qadriyatlar yaratilishi mutanosibligiga erishish, demografik muammolar;

- Yer yuzi aholisini zarur oziq-ovqat va quvvat manbalari bilan ta'minlash;

- ochlik, qashshoklik va qoloqlikni tugatish uchun yuksak rivojlangan va qoloq mamlakatlar o'rtasidagi keskin farqni bartaraf etish;

- xavfli kasalliklarni tugatish;

- inson ma'naviy muhiti sofliğini ta'minlash va boshqalar¹.

Hozirgi kunda jahon olimlari insoniyat oldida turgan 3 ta global muammoni barcha muammolarning eng asosiysi, deb e'tirof etmoqda:

1. Kambag'allik: statistik ma'lumotlarga ko'ra, kambag'allik natijasida kelib chiqadigan kasalliklar tufayli dunyoda yiliga 20 mln odam (kuniga 40 ming, soatiga 1700 kishi) vafot etmoqda.

2. Ijtimoiy adolatsizlik: dunyodagi 250 ga yaqin davlatlardan faqat AQSh, yevropa mamlakatlari, YAponiya kabi atigi 15 ta eng boydavlatlarga jahon daromadining 85 foizi to'g'ri keladi.

3. Urush va harbiy ziddiyatlar: XX asrda sayyoramizda II jahon urushidan tashqari 900 ta lokal (mahalliy) urush va harbiy to'qnashuvlar sodir bo'lgan va ularning soni tobora ortib borgan. Masalan, 1900—1914 yillarda 35 ta, ya'ni yiliga 2,5 ta urush

¹ Jo'raev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. - Toshkent.; 2008. 397-bet.

sodir bo'lgan; 1917—1933 yillarda 78 ta, yiliga 3,5 ta urush bo'lgan, 1946—1995 yillarda 780, yiliga 15,6 ta urush sodir bo'lgan. 1990—1995 yillar ichida 70 ta davlat ishtirok etgan 93 ta urush, ya'ni yiliga 19 ta urush bo'lgan¹. Umuman , insoniyat tarixida jami 14,5 mingta urush bo'lgan, ularda 6 mlrd kishi halok bo'lgan.

Globallashuv jarayonlari natijasida ishlab chiqarish omili sifatida insonning o'zida va unga nisbatan munosabatda jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lganini ham unutmaslik lozim. Ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida ishlab chiqaruvchi kuchlarning bilim va malakasi jiddiy tarzda o'sdi, olim-mutaxassislarning roli oshdi. Ilm-fanning ahamiyati kuchaygan sayin aqliy mehnat bilan band xodimlar soni oshib bormoqda. Bu kabi omillar dunyo miqyosida sanoat va qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash, iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining tez o'sishini ta'minlaydi. Bu millionlab odamlarning, avvalo, rivojlanmagan hududlardagi aholining hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ziddiyatlarni ham keltirib chiqaradi. Jahon bankining ma'lumotiga ko'ra, so'nggi yillarda dunyodagi qashshoqlar soni yiliga o'rtacha 2 foizdan oshib bormoqda.

Iqtisodiyotdagi tub o'zgarishlarga olib kelgan texnologik jarayonlar mehnat bozori, umuman, aholining bandligi tizimida ham jiddiy o'zgarishlarga olib keladi. Iqtisodchilarning hisob-kitoblariga ko'ra, yaqin kelajakda butun iqtisodiy tizimning ishlashini ta'minlash uchun aholining 20 foizigina yetarli bo'ladi, xolos. Bu degani, inson resurslarining asosiy qismi ishlab chiqarish tizimidan siqib chiqariladi, 80 foiz aholi ortiqcha bo'lib qolishi mumkin. Bu esa jinoyatchilik, firibgarlik, korrupsiya, terrorchilik, narkotik moddalar, qurol va odam savdosini kuchaytirishi mumkin.

Shubhasiz, insoniyat oldida turgan bunday muammolar tobora ko'payib bormoqda. Ularning oldini olish, mavjud muammolarni hal etish alohida olingan bir davlatning vazifasigina emas, boshqacha so'z bilan aytganda, mavjud muammolarni bir davlat doirasida hal etish ham mumkin emas. Yurtboshimiz I.Karimov ta'kidlaganlaridek: «davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishi,

¹ Saidov U. Glaballashuv va madaniyatlararo muloqot. -Toshkent,.; 2008. 21-bet.

zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizida uyg'unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi tabiiyki, ularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda»¹.

Ma'lumki, mustaqillik mamlakatimizni jahonga tanitdi. O'zbekistonning mustaqil subyekt sifatida e'tirof etilishi, O'zbekiston va jahon munosabatlari, shubhasiz ikki tomonlama va ko'p tomonlama manfaatlarga xizmat qilmoqsa. Bunday munosabatlar silsilasida, ayniqsa, madaniyatlararo o'zaro ayirboshlash, integratsiyaning o'rni va nufuzi ortib bormoqda.

Shu narsa ayonki, madaniyatlararo integratsiya dunyoni yangilashga, insoniyat tafakkurini boyitishga, uning madaniy saviyasini oshirishga katta xizmat qiladigan muhim ijtimoiy-madaniy hodisadir. Jahon sivilizatsiyasi, ilg'or mamlakatlar ilm-fani, madaniyati bilan hamkorlik natijasidagina insoniyat yaratgan ma'naviy, ilm-fan yutuqlarini o'rganishimiz, o'zimizda yaratilgan shunday boyliklarni targ'ib etishimiz mumkin.

Ammo bu degani hozirgi kunda dunyoda sodir bo'layotgan, vujudga kelayotgan barcha yangiliklarni hech o'zgartirmasdan qabul qilish lozim, deganini ham anglatmaydi. Yurtboshimiz I.Karimov bu xususida quyidagilarni ta'kidlagan edi: «Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim. Ya'ni, kommunistik mafkura va uning axloq normalaridan voz kechilganidan so'ng jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan «ommaviy madaniyat» yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmaslik kerak.

Tabiiyki, «ommaviy madaniyat» degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan

¹ Karimov I.A. Yuksak madaniyat - yengilmas kuch. - Toshkent.; 2008. 21-bet.

tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi»¹.

Hozirda butun dunyoda ma'naviy tahdidlar tobora kuchayib bormokda. Qurol kuchi, yovuzliklar, qo'rqitishlar bilan amalga oshirish mumkin bo'lmagan ishlarni ma'naviy tahdidlar orqali bajarish imkoniyatlari tug'ilmoqda. Ayniqsa, so'nggi paytlarda «beshinchi kolonna» nomi bilan atatayotgan ma'naviy-mafkuraviy tahdid kuchaymoqda. 5-kolonna aslida 1936 yilda Franko boshliq ispan fashistlarining Madridni olish uchun o'ylab topgan hiylasi edi. Mamlakatni ichida turib to'ntarish uyushtirish, yollanma agenturadan foydalanish, shaharni himoya qilayotgan tom ma'nodagi vatanparvarlar ongiga ta'sir o'tkazish, zaharlash aslida 5-kolonnaning maqsadi edi. So'nggi paytlarda bu narsa tobora ommalashib bormoqda.

Ma'naviy-mafkuraviy tahdidlar aslida uzoq yillar davomida shakllangan va hozirda yanada takomillashib bormoqda. XIX asrning boshlarida yashagan Markiz de Sad «erkin yashash falsafasi» ni quyidagicha ta'riflaydi: «Bundan buyon dunyoni zabt etish uchun armiya bilan uzoq hududlarga harbiy hujum uyushtirishimiz, jangdan so'ng o'lgan askarlarimiz etigi begona yurtlarda chirib bitishi mutlaqo shart emas. Agar mening kitoblarimga o'xshash asarlarda tasvirlangan yashash tarzini dunyoga yoysak, u orqali o'sha yerdagi odamlar qalbini egallasak, ularni jismoniy mahv etishga hech qanday asos yo'q. Qalbi bizning qo'limizga o'tgan xalqlarning o'zi ixtiyoriy ravishda oyog'imiz ostiga yukinib keladi, bizga qul bo'ladi».

2005 yilda Rim Papasi vafotidan so'ng G'arb dunyosida ayrim guruh kishilarning bir jinsli nikohga kirshi turgani uchun Yozef Rotsinger (Benedikt XVI) ni Papa etib saylanishiga qarshi turgani, yevropa ittifoqiga kiruvchi davlatlar hududida «ota», «ona» so'zlarini yo'q qilib, ular o'rniga «roditel» so'zini ishlatishga qilingan da'vatlar — bularning bari ma'naviy taxdidlar natijasidir.

Ma'naviy taxdidlar insonni, uning dunyoqarashi, ruhiyati, ma'naviy olamini mutlaqo o'zgartirib yuboradi, insonni real dunyodan Virtual dunyoga o'tishini tezlashtiradi. Xo'sh, gap nima ustida ketmoqda? **Real dunyo** — o'zida inson hayoti va borlig'ini, tarixi, buguni, harakati, yangilanishi, doimo ezgulikka intilishi, kurashlari, iztiroblari, orzu-umidlarini aks ettiradi. **Virtual dunyo** — inson ruhiyatida hali to'la anglab yetilmagan

¹ KarimovI.A. Yuksak manaviyat - yengilmas kuch. - Toshkent.; 2008. 117-bet.

qandaydir g'ayriodatiy o'zgarishlar va zo'riqishlar mahsuli bo'lib, turli tubanliklarni yaratish erki sifatida taassurot uyg'otadi.

Real dunyo bizning bugungi kunimiz. Virtual dunyo esa inson ruhiy olamini o'zgartiradi, uni noma'lum, axloq va ma'naviy javobgarlikdan xoli olamning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Virtual dunyoni zamonaviy axborot texnologiyalari bag'rida yaratilishini, ayni paytda u atom bombasining kashf etilishi bilan qiyoslanishi mumkin. Virtual dunyo «erkinlik falsafasi»ni targ'ib etadi. Alber Kamyu nazarida odam erki hamma narsadan ustun. Bu gap ko'proq G'arbga tegishli. Lekin o'zbek farzandi uchun o'g'il erki ona oldidagi qarz va mas'uliyatdan baland emas.

So'nggi paytlarda globallashuv natijasida ma'naviy taxdid — tajovuzlar salmog'i ham ortib borayotganligini ta'kidlash lozim. «Yosh avlodni turli ma'naviy tajovuzlardan himoya qilish haqida gapirganda, — deydi Yurtboshimiz, nafaqat xalqimizni ulug'laydigan buyuk xususiyatlar, ayni uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan, eski zamonlardan qolib kelayotgan noma'qul odatlar haqida ham ochiq so'z yuritishimiz zarur. Birinchi navbatda xudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug'chilik va mahalliychilik, korrupsiya va manfaat-parastlik, boshqalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay xalos etish to'g'risida o'ylashimiz lozim»¹.

Ayni paytda I.Karimov salbiy xususiyatlardan yana biri hasad, shuning'dek, sotqinlik, irodasizlik, beparvolik kabilar to'g'risida ham fikr yuritadi. Ular, shubhasiz, ma'naviy hayotimizga jiddiy xavf solayotgan illatlar hisoblanadi. Bunday illatlardan xalos bo'lishning eng to'g'ri, maqbul yo'li - ma'naviyat, shaxsning ma'naviy olamini yaratishdir. Tarixda ulkan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va mislsiz kashfiyotlar davri bo'lgan XX asr nihoyasiga yetdi. Uning so'nggida jahon xaritasi o'zgardi, sobiq Ittifoq parchalandi, mustaqil davlatlar shakllandi. O'zbekiston xalqi ham o'z istiqlolini qo'lga kiritdi, mamlakatimizda Prezident Islom Karimov rahbarligida milliy davlatchilik asoslari tiklandi, taraqqiyotimizning ustuvor yo'nalishlari belgalab olindi.

Istiqlol yillarida yangi Konstitutsiya qabul qilindi, ko'p ukladli iqtisodiyot asoslari yaratildi. Ularga tayangan holda demokratik tamoyillar, ko'ppartiyaviylik, siyosiy plyuralizm muxiti shakllanmoqda, yangilanish jarayonlari va islohotlar jamiyatimiz

¹ Karimov I.A. Yuksak manaviyat - yengilmas kuch. - Toshkent.; 2008. 120-bet.

rivojining asosiy yo'nalishiga aylandi.

Mamlakatimizni rivojlantirish xususidagi asosiy xulosa va tamoyillar Prezidentimizning asarlarida o'zining teran ifodasini topgan. Ularda jamiyatimizning pirovard maqsadlariga yetishning mafkuraviy yo'nalishlarini aniq ifodalaydigan yaxlit ta'limot — milliy istiqlol g'oyasining mohiyati, mazmuni, tushuncha va tamoyillari, o'ziga xos xususiyatlari ham ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Ushbu asarlarni o'rganish yurtimizda barpo etayotgan jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy poydevorini mustahkamlash, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, yot mafkuralar tajovuziga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zarurati milliy istiqlol g'oyasini taqozo etganligini yaqqol ko'rsatadi.

Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashiga, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni bunyodkorlik ishlariga da'vat qilish, shu muqadsas tuproq uchun fidoiylilikni hayot mezoniga aylantirish — milliy istiqlol g'oyasining asosiy maqsadidir.

Bu g'oya dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin egallab borayotgan mamlakatimiz xalqining istiqlol yillarida orttirgan tajribalari, bosib o'tgan murakkab va shonli yo'li, milliy tafakkuri va ma'naviyatidagi yuksalishlarning mantiqiy natijasi, xalq irodasining mujassam ifodasi sifatida shakllandi.

Milliy istiqlol mafkurasi O'zbekiston xalqining ezgu g'oya — ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu-intilishlari, ulug' maqsad-muddaolarini o'zida aks ettiradi. U xalqni xalq, millatni millat etadigan, uning sha'nu sharafi, or-nomusi, ishonch-e'tiqodini ifodalaydigan g'oyalar tizimidan iborat bo'lib, jamiyatimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, turmush tarzi, tub manfaatlarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Prezidentining asarlarida mazkur ta'limot ishlab chiqilishining bir-biri bilan dialektik aloqadorlikda va uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladigan o'ziga xos umumbashariy, mintaqaviy va milliy omillari ko'rsatib berilgan. Ana shu

omillar ushbu nazariya yaratilishining geopolitik asoslarini, ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlarini va mezonlarini belgilaydi.

Umumbashariy omillar. Ma'lumki, inson qalbi va ongini egallash uchun kurash tobora kuchayib borayotgan bugungi dunyoda butun yer yuzining mafkuraviy manzarasi tubdan o'zgarib bormoqsa. Dunyoning xaritasini o'z maqsadlari yo'lida o'zgartirmoqchi bo'layotgan kuchlar, mafkuraviy poligonlar jahondagi barqarorlik va taraqqiyotga tahdid solmoqda. Bu tahdid va xavf-xatarlarning asosiy shakllari, yo'nalishlari va maqsad-muddaolari Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli asarida ko'rsatib berilgan.

Bugungi «ikki qutbli mafkura» o'rtasidagi kurashga barham berilgan bo'lsada, ammo dunyoda mafkuraviy kurashlar to'xtab qolgani yo'q. Aksincha, jahon maydonlarini mafkuraviy bo'lib olishga urinishlar turli yo'llar bilan sodir bo'lmoqda.

Jahon geosiyosatida xalqlarni ma'naviy-mafkuraviy jihatdan tobe etishga intilish va bugungi kunda dunyoni shunday asosda bo'lib olishga urinishlar davom etmoqda. Buning uchun ular hozirgi zamon ommaviy axborot vositalari, ularning yutuqlaridan, hamda turli xil markazlar, ayni paytda o'zaro hamkorlikka yo'naltirilgan ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy vositalardan foydalanish orqali dunyoning turli hududlarida o'zlariga mos mafkuraviy muhitni shakllantirish maqsadlarini ham ko'zlamoqdalar.

Ana shunday sharoitda milliy istiqlool g'oyasiga tayanish orqaligina bunday mafkuraviy maydonlarda olib borilayotgan kurashlar mohiyatini to'g'ri tushunish va ularning oldini olish mumkin.

Mintaqaviy omillar. XX asrning oxirida dunyoda jahonshumul voqealar ro'y berdi. Uning siyosiy xaritasi, jumladan, Markaziy Osiyoning manzarasi tubdan o'zgarib ketdi. Sobiq ittifoqning parchalanishi, uning hukmron mafkurasi barbod bo'lishi va Markaziy Osiyodagi respublikalarning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi mintaqamizda nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki yangi mafkuraviy vaziyatni ham vujudga keltirdi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, taraqqiyot sari

qadam tashlayotgan hozirgi sharoitda ham jahondagi ma'lum bir siyosiy kuchlar, mafkuraviy poligonlar ulkan iqtisodiy salohiyat va qulay geopolitik mavqega ega bo'lgan bu mintaqani o'z manfaatlari doirasiga tortish harakat-laridan to'xtagani yo'q. Ular o'z maqsaddariga erishish uchun ta'sir va bosim o'tkazishning turli shakllarini qo'llamoqsalar.

Bu maqsadda mintaqada tarixan shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy aloqalarni izdan chiqarish, do'st va birodar davlatlar, xalqlar va millatlar o'rtasiga nizo solish, keskinlik o'choqlarini keltirib chiqarish uchun turli g'oyaviy, diniy va mafkuraviy vositalar ishga solinmoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo xalqlarining dunyoqarashi va ma'naviyatida islom dinining mustaxkam o'rin egallaganidan foydalanib, ularga «saboq» berish, dinni qayta tiklash bayrog'i ostida mintaqada ekstremizm va fundamentalizmni keng tarqatish borasida olib borilayotgan harakatlar kuchaydi.

Aslida «fundamentalizm» va «ekstremizm» g'oyalarining Markaziy Osiyoga kirib kelishidan ko'zlangan maqsad — dinning asl qadriyatlarini qaytadan tiklash emas, balki ana shu g'oyalardan vosita sifatida foydalanish orqali mintaqada beqarorlikni, diniy va millatlararo nizolarni vujudga keltirish, oxir-oqibat esa hokimiyatni qo'lga kiritishdir. Bu urinishlarda tuzatib bo'lmas fojialarga olib kelishi mumkin bo'lgan, tarix sahifasida qolib ketgan xalifalikni tiklash g'oyasiga ham zo'r berilmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining tinchligi va barqarorligiga, mazkur mintaqada yashovchi xalqlarning xavfsizligiga daxl qiluvchi tajovuzlarning oldini olish va bartaraf etish borasidagi hamjihatligini mustahkamlash, ularning bu yo'ldagi sa'yharakatlari, imkoniyatlari va saloxiyatlarini birlashtirish ayniqsa muhimdir. Shu ma'noda O'zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan «Turkiston — umumiy uyimiz» g'oyasining ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim.

Mintaqada xavfsizlikni ta'minlashning asosiy sharti Afg'onistonda davom etayotgan fuqaroviy urushni to'xtatish, u yerda tinchlikni ta'minlashdir. Chunki bu zaminda davom etayotgan urush natijasida giyohvand moddalarni noqonuniy yo'l bilan mintaqada mamlakatlariga olib o'tish, qurollarni g'ayriqonuniy yo'l bilan tarqatish, terrorchilik harakatlarini avj oldirish sodir bo'lmoqda. Bu borada ham O'zbekiston ilgari surayotgan

Afg'onistondagi harbiy mojarolarni siyosiy yo'l bilan hal etishga qaratilgan «Olti qo'shuv ikki» guruxi faoliyatini yo'lga qo'yish, terrorchilikka qarshi xalqaro kurash markazini tashkil qilish borasidagi tashabbuslar, mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish yuzasidan olib borilayotgan sa'y-harakatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanish tarixi, ayniqsa, har jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lib qolgan hozirgi dunyo voqeligi shundan dalolat berib turibdiki, aloxida olingan bir davlatdagi hech bir mojaro uzoq vaqt davomida milliy chegaralar doirasida qolib ketmaydi. Bir qancha sabablarga ko'ra bunday mojaro nazorat qilib bo'lmaydigan darajada yoyilib ketishi muqarrar. Bu esa ertami-kechmi qo'shni davlatlar oldiga barcha salbiy oqibatlari bilan birga qator muammolarni ko'ndalang qilib qo'yadi. Hatto mintaqadagi vaziyatni beqarorlashtirish darajasiga borib yetadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mojaroning yashirin va oshkora tarzda baynalmilallashuvi tanglikni chuqurlashtiradi. Chunki turli maqsadlarni ko'zlaydigan va tanglik mavjud bo'lgan hududda o'z manfaatlarini ta'minlashga intiladigan tashqi kuchlar hamma vaqt shay turadi.

Xullas, bugungi kunda xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etish mintaqadagi barcha mamlakatlarning istiqbolini ham bir qadar belgilab beradi. Shuning bilan birga bu mintaqada yashayotgan xalqlarning azaliy qon-qarindoshligi, hamkorligi va ma'naviy-ruhiy yaqinligini mustahkamlashda ham o'ta muhim ahamiyatga molik masala bo'lib qolaveradi. Xuddi shuningdek, mintaqaga qarshi qaratilgan mafkuraviy ta'sirlarga qarshi kurashni kuchaytirishda umummintaqaviy birlikni mustahkamlashning ahamiyati ham oshib boraveradi.

Milliy omillar. Istiqlool g'oyasining milliy omillari xalqimiz tarixi, respublikamiz rivojining hozirgi davri, taraqqiyotning o'zbek modelini amalga oshirish, mamlakatimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish jarayoni bilan uzviy bog'liq. Chunki bu g'oya xalqimizning asriy an'ana va qadriyatlarini, milliy o'zligimizni o'zida mujassamlashtiradi, ularni umuminsoniy qadriyatlar, bugungi dunyo sivilizatsiyasi yutuqlari bilan boyitib, oldimizda turgan ezgu maqsad va vazifalarni aniq-ravshan aks ettiradi. Ushbu g'oya asosida har bir

vatandoshimiz mamlakatimizda barpo etilayotgan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy yo'nalishlarini amalga oshirishning mafkuraviy tamoyillarini aniq-ravshan tasavvur eta oladi.

Bu masalalar mamlakatimiz rahbari Islom Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li», «O'zbekiston buyuk kelajak sari», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» kabi asarlarida hamda ko'plab ma'ruza va nutqlarida o'z aksini topgan. Ularda O'zbekiston xalqi qanday maqsad sari intilayotgani, qanday jamiyat barpo etgani ilmiy asosda keng va atroflicha yoritib berilgan. Ayniqsa, «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida mustaqil taraqqiyot yillarida orttirilgan tajribalarga tayangan holda, sobiq sovet tuzumining og'ir asoratlari qaramay, yurtimiz katta rivojlanish yo'li, O'zbekiston yangi asrga qanday rejalar bilan kirib borayotgani asoslangan. Yurtimizda ma'no-mohiyatiga ko'ra butunlay yangi jamiyat barpo etish va XXI asrning dastlabki yillariga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari ko'rsatib berilgan. Ana shu yo'nalishlar ham milliy istiqlool g'oyasining tushuncha va tamoyillarini chuqur o'zlashtirib olish, amaliyotda esa ularga tayangan holda yashash va ishlash zarurligini ko'rsatadi.

Milliy istiqlool g'oyasining zaruriyligi taraqqiyotning o'zbek modelini amalga oshirishda yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbek modelining asoschisi Islom Karimov rahbarligida amalga oshirilayotgan taraqqiyot yo'lining ko'pchilik boshqa milliy modellardan farq qiladigan xususiyati shundaki, u faqat iqtisodiy rivojlanish emas, balki keng ma'nodagi milliy tiklanish va ijtimoiy taraqqiyot modeli hamdir. U avvalo, O'zbekistonning mustaqil milliy taraqqiyoti qanday bo'lishi lozimligini asoslaydi hamda muayyan maqsadlarga yo'naltiradigan eng umumiy nazariy xulosalar va mo'ljallar bilan davlatning belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan amaliy siyosatining mushtarakligini anglatadi.

Istiqloolning dastlabki yillarida Prezident Islom Karimov tomonidan jamiyatni isloh etishning chuqur ilmiy asoslangan besh tamoyili ishlab chiqildi. Ular O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'lining asosini, o'tish davri dasturining negizini tashkil etadi. Taraqqiyotning o'zbek modeli xalqimizning milliy davlatchilik an'analari, qadriyatlari va mentalitetiga tayangani, ayni vaqtda, jamiyatni isloh etish borasidagi

dunyo tajribasining ilg'or yutuqlariga asoslangani tufayli xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda.

Xullas, bu g'oya mamlakatimizda barpo etilayotgan jamiyat va taraqqiyotning o'zbek modeli bilan uzviy bog'liqsir. Mustaqillikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish jarayonida, xalqimizni pirovard maqsadlar yo'lida uyushtiruvchi omil, ijtimoiy faoliyatning ma'naviy mezon sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolaveradi. Istiqlol: mafkuraviy tahsid va muammolar. Tajriba mustaqillikni mustahkamlash murakkab va serqirra jarayon ekanligini ko'rsatmoqda. Garchand O'zbekistonda tinchliksevar ichki va tashqi siyosat olib borilayotgan, mamlakatimiz o'ziga xos taraqqiyot yo'lidan borayotgan bo'lsa ham, unga qarshi mafkura sohasidagi tahdidlar to'xtab qolayotgani yo'q.

Bugungi kun voqeligi Prezidentimizning «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasiga yozilgan «So'z boshi»dagi quyidagi fikrining to'g'riligini isbotlab turibdi: «Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga tahsid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar»¹.

Hozirgi davrda ham tinchligimizga, barqarorligimizga rahna solishga harakat qilayotgan mafkuraviy taxdidlar borligi aniq. Ularning maqsadi — O'zbekiston hududida o'z tamoyillarini o'tkazish, xalqimizning ongi va qalbini egallash, mamlakatimizni tanlab olingan o'zimizga xos va mos taraqqiyot yo'lidan boshqa tomonga burib yuborish, yurtimizning kelajagini bizga yot va begona g'oyalarning sohiblari — dunyoning turli joylaridagi mafkuraviy poligonlarning qo'lga topshirish. Bu borada quyidagi mafkuraviy tahsidlarni alohida ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq:

islom xalifaligini tiklab, uning bayrog'i ostida musulmon xalqparni yangi imperiyaga birlashtirishga qaratilgan intilishlar;

yosh mustaqil davlatlarni qaytadan sobiq Ittifoqqa birlashtirish g'oyasi;

tariximizni, milliy qadriyatlarimiz va dinning mohiyatini soxtalashtirishga urinishlar;

axloqsizlikni yoyib, xalqni ma'naviy jihatdan buzishga qaratilgan intilishlar;

¹ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.: "O'zbekiston", 2000. 3-bet.

turli mafkuraviy vositalar orqali mintaqaviy va davlatlararo mojarolar keltirib chiqarishga qaratilgan harakatlar.

Xalqimizni ushbu tahsidlardan asrash, jamiyatimiz a'zolarida ularga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish uchun, avvalo, fuqarolarimizni milliy g'oya, istiqlol mafkurasi bilan qurollantirish zarur. Bu zarurat milliy istiqpol g'oyasini xalqimiz ongi va qalbiga singdirishni dolzarb masalaga aylantirmoqsa. Milliy istiqpol g'oyasi: nazariya va ta'limot. Mustaqillik yillarida jamiyatimiz a'zolarining dunyoqarashi, fikrlash tarzida teran o'zgarishlar ro'y berdi. Xalqimizni birlashtiradigan, bunyodkorlik faoliyatiga safarbar etadigan, uning ezgu maqsadlari va manfaatlarini o'zida ifodalaydigan milliy g'oya va mafkurani yaratish ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy taraqqiyotimizning muhim sharti bo'lib qoldi. «Oldimizga qo'ygan olijanob maqsad-muddaolarimizga yetish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo'lish, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, begona va yot g'oyalarning xurujidan ximoyalanish, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqsa»¹.

Milliy istiqlol g'oyasi ana shu zaruratning natijasi bo'lgan nazariya va ta'limot sifatida o'zining tarixiy iddizlari, ilmiy asoslari, o'ziga xos tushuncha va tamoyillariga ega yaxlit tizimni tashkil qiladi. Bu tizim mutlaq o'zgarmaydigan va qotib qolgan fikrlar majmuasi emas, balki zamon talablari, ijtimoiy voqelikdagi rivojlanish jarayonida boyib boradigan tushuncha va tamoyillarni o'zida ifodalaydi. Uning tuzilishi va tizimi Prezidentimiz asarlari asosida tayyorlangan «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida o'z aksini topgan.

Mazkur risolaning «So'z boshi»sida bu borada quyidagicha ta'kidlangan: «Milliy g'oya va istiqlol mafkurasi haqida gap borar ekan, biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab serqirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodasi, tugal namunasi hali hanuz yaratilmagan tushunchalarni o'zimizga tasavvur qilishimiz kerak. Bu mafkura xalqni xalq, millatni millat etadigan, uning sha'nu-sharafi, or-nomusi, ishonch-e'tiqodidir»

¹ Karimov I. So'z boshi. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.: "O'zbekiston", 2000. 5-bet.

2.2. Ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashning pedagogik mezonlari.

Tarixda ma'naviy barkamol insonga extiyoj sezmagani jamiyat bo'lgan emas va bo'lmasa ham kerak. Ma'naviy barkamol insonni tarbiyalab voyaga yetkazishga bo'lgan zaruriyatning asosiy sababi va mohiyati nimalar bilan belgilanadi, degan savol tug'ilishi ehtimoldan uzoq emas. Bu mustaqillik talab-extiyoji bilan bog'liq bo'lgan ob'ektiv zaruriyatdir.

Har qanday ulug'vor maqsadlarga yetishish, inson zotiga munosib go'zal hayotni barpo etish jamiyat a'zolari bo'lgan odamlarga, ya'ni barkamol avlodga ko'p jihatdan taalluqlidir.

Komil insonni, barkamol avlodni tarbiyalash - buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish demakdir. "Barchangiz yaxshi bilasizki, - deydi Islom Karimov, - kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir... Faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin"¹.

Ma'naviy barkamol insonni tarbiyalab voyaga yetkazish hozirgi davr talablari asosida yuzaga kelgan, siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotimiz tasiri bilan uzviy aloqadorlikka bo'lgan ulug'vor, mas'uliyatli, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan vazifa va muammo ekanligi mohiyatini quyidagicha bayon etish mumkin:

Birinchidan, milliy istiqlolimizning barqarorligini, ijtimoiy taraqqiyotimizning tezlashib, jadallashib borishini, O'zbekistonning buyuk davlat bo'lishini madaniyatli, ma'naviyatli, yuksak odob-axloqli, o'z xalqi, millati, Vatanini butun vujudila sevib ardoqlaydigan, ajdodlari yaratgan bebaho ilmu- hunar javohirlarini imkon qadar mukammalroq egallab olgan, butun insoniyatga xos qadriyatlardan baxramand, boxabar bo'lgan komil insonlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Insonni ma'naviy kamolotga yetkazmasdan turib xalq turmush farovonligi hamda jamiyatimiz taraqqiyotida ulkan natijalarga erishish amrimaholdir. Yurtboshimiz

¹ Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. -T.: "Sharq" 1998. 8-9-betlar.

Islom Karimov bu haqqa "Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangana emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim. Mamlakatimizning mard, fidoyi kishilari yurtiga, mehru shafqat, muhabbat barqaror bo'lgan, tafakkur va ijod qaynagan muqadsas makonga aylanishiga aminman" -deydi¹.

Ikkinchidan, modomiki biz huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurayotgan ekanmiz, bu ulug'vor va murakkab vazifalarni hal etish, eng avvalo, inson kamolotiga, ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat masalalariga borib taqaladi.

Bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan erkin, ochiq huquqiy demokratik davlat qurish, adolatli fuqarolik jamiyati barpo etishning eng muhim shartlaridan biri - yangicha, zamonaviy fikrlovchi, iymon-e'tiqodi mustahkam, mustaqillik yillarida shakllangan tafakkur va dunyoqarashga ega bo'lgan, mustaqillik ma'naviyati asoslarini mukammal o'zlashtirib olgan barkamol avlodni, kamolotga erishgan insonlarni shakllantirishdan iboratdir. Bu g'oyatda muhim vazifadir.

Bir paytlar, hamma narsa kommunistik mafkura qolipi bilan o'lchangan, aqlli odamlar qirgan-qatag'onlar tufayli qo'rqib yuragini oldirib qo'ygan, ularning ongi va qon-qoniga vahima hissi singib ketgan zamonlarda kishilar dilidagini tiliga chiqara olmas, ichidagi g'am-tashvishlarni rasmiy minbarlardan turib yoki matbuotda ochiq-oydin bayon etolmas, o'zini kommunistik partiyaga, hukmron mafkura g'oyalari va mavjud tuzumga sadoqatli ko'rsatishdan boshqa imkoniyatga ega emas edi. Sinfyiy tazyiq va qatag'onlar ularga har daqiqa xavf solib turardi, erkin fikrlashga yo'l bermasdi. Buning oqibatida kishilarning tili bilan dili, tashqi faoliyati bilan ichki dunyosi o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga kелgandi.

Mustaqillikka erishilmaganda odamlar tili bog'liqlik, siyosiy-ma'naviy karaxtlik, fikriy qaramlikdan qutila olmasdi, mustaqil fikrlash va tafakkurlash imkoniyatidan mahrumligicha qolaverardi. "Bugungi hayotimizning kechagi kunimizdan asosiy farqini topmoqchi bo'lsak, - deydi O'zbekiston Prezidenti, - bu avvalo odamlarning tafakkuri o'zgarib. aniqrog'i yuksalib borayotgani bilan belgilanadi. Bu haqiqatni hech kim inkor etolmaydi. Aslida odamzot tafakkurining chegarasi yo'q. Hayot

¹ I.Karimov. Vatan sajdagoh kabi kabi muqaddasdir, 3jild.- T.: "O'zbekiston", 1999. 42-bet.

o'zgarishi bilan, borliq dunyo o'zgarishi bilan insonning moddiy va ma'naviy muhiti, uning dunyoqarashi ham o'zgarishi qonuniy hol, albatta. Agar tafakkurni atrofimizdagi hayot tarzining mahsuli sifatida qabul qilsak, uning ikkinchi jihati shundaki, hayotning o'zi ham, uning o'zgarishlari ham odamzot tafakkurining o'zgarishi bilan chambarchas bog'liq"¹.

Uchinchidan, iqtidorli, bilim saviyasi yuqori va chuqur, zukko, ishbilarmon, halol va ijtimoiy maydonlarda sobit turadigan ma'naviy barkamol insonlar bozor munosabatlariga o'tish uchun ham juda muhim va zarurdir. Chinakam sivilizatsiyalashgan, sharqona bozor munosabatlarini faqat yuksak axloqlilik va ma'naviyat asosida barpo etish mumkin.

To'rtinchidan, jamiyatimiz taraqqiyotining poydevori bo'lgan barkamol avlod va kamolotga yetgan insonlar poraxo'rlik, o'g'irlik, tovlamachilik, firibgarlik, mahalliychilik, qarindosh-urug'chilik, oshna-og'aynigarchilik, vazifani suiste'mol qilishlik kabi yaramas illatlarning oldini olish, ijtimoiy adolat qaror topishini ta'minlashning muhim va zarur omillaridan bo'lib hisoblanadi.

Beshinchidan, odamlarni, mamlakat fuqarolarini g'oyaviy-siyosiy jihatdan chiniqtirmasdan, huquqiy savodxonligini oshirmasdan, mustaqil fikrlashlariga, mustaqillik g'oyalari sobit turishlariga erishmasdan chetdan turib qilinayotgan mafkuraviy taxdidlarga, shuningdek, ekstremizm va islom fundamentalizmi, buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik, korrupsiya va jinoyatchilik, mahalliychilik va urug'-aymoqchilikka qarshi mardonavor kurashib hamda ularni bartaraf etib bo'lmaydi.

Prezident Islom Karimov tomonidan takror va takror aytilib, ogohlantirib kelinayotganidek, hozirgi vaqtda dunyoda ikki qarama-qarshi qutb barham topgan bo'lsada, ammo turli maqsad-manfaatlarni, g'oyalarni ifoda etuvchi mafkuralar tortishuvi, kurashi to'xtagani yo'q. Aksincha, tobora kuchayib, avj olib bormoqda. Ana shu kurashlardan ko'zda tutilgan asosiy maqsad—inson, avvalombor, yoshlar qalbini egallash, muayyan mamlakat yoxud mintaqadagi biror millat yoki xalqning ongiga, sezgi-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazish, uni o'z dunyoqarashiga bo'ysundirish, ma'naviy

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild, -T.: "O'zbekiston", 1999. 297-bet.

jihtadan zaif va tobe qilishdir. "Fikr qaramligi, tafakkur qulligi esa har qanday iqtisodiy yoki siyosiy qaramlikdan ham ko'ra daxshatlidir"¹ - deydi Islom Karimov.

Pedagogika fanlari nomzodi dotsent Qosimova Zebo Hamidovna o'zining "Talaba yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakillantirishning pedagogik asoslari" nomli nomzodlik dissertatsiyasida sog'lom mafkurali insonni tarbiyalashda yuzaga keladigan asosiy muammolardan hisoblangan mafkuraviy immunitet masalasiga alohida to'xtalagan va yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllanganlik mezonini ishlab chiqqan.

Yoshlarda mafkuraviy immunitetning shakllanganlik mezonlari

Mafkuraviy immunitetning tarkibiy qismlari	Namoyon bo'lish darajalari		
	Kuchli	O'rtacha	Kuchsiz
1	2	3	4
1. Mafkuralar, g'oyalar haqidagi bilimlar.	Dars va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda, kundalik hayotda ham, harakatlarida, fikr, munosabatlarida tez-tez namoyon qiladi.	Ba'zi hollarda namoyon bo'ladi.	Darsda yoki o'qituvchi so'ragan paytda namoyon bo'ladi. Hayotiy vaziyatlarda namoyon bo'lmaydi.
2. Buzg'unchi g'oyalar maqsad-mohiyatini bilish va ularga qarshi turish.	Buzg'unchi g'oyalarga doimo va hamma joyda faol qarshi fikr bildiradi.	Buzg'unchi g'oyalar mohiyatini biladi, lekin ularni fosh qilishda faollik ko'rsatmaydi.	Buzg'unchi va bunyodkor g'oyalarning maqsad-mohiyatini farqlamaydi, buzg'unchi g'oyalarni ko'rib, eshitganda ham befarqlikni namoyon qiladi.
3. Bunyodkor g'oyalar maqsad-mohiyatini bilish va munosabat bildirish, rag'batlantirish.	Bunyodkor g'oyalarni aniq, asosli biladi, o'z nutqida faol qo'llaydi, hayotda ularni faol namoyon qiladi va rag'batlantiradi.	Bunyodkor g'oyalarning buzg'unchi g'oyalardan farqi, ahamiyatini biladi, biroq ularni hayot bilan bog'lay olmaydi.	Bunyodkor g'oyalarning maqsad-mohiyatini biladi, biroq ularni qo'llab-quvvatlash, himoyalashga harakat qilmaydi.
4. Mustaqil fikrini dalillar bilan isbotlash ko'nikmasi.	Har bir vaziyatda o'z fikrini bildirish bilan birga, uni nima uchun shunday ekanligini asoslaydi.	Voqea, hodisalarga o'zining to'g'ri fikrini bildiradi, biroq, uni asoslay olmaydi.	Voqea, hodisalarga shaxsiy munosabat bildirmaydi.
5. Ijtimoiy-siyosiy faollik.	Jahonda va O'zbekistonda kechayotgan mafkuraviy jarayonlarga faol munosabat bildiradi, kursdoshlarini yangiliklardan xabardor qilib turadi.	Jahonda va O'zbekistonda kechayotgan mafkuraviy jarayonlardan xabardor, biroq ko'proq tinglovchi, munosabat bildirishda faol emas.	Mafkuraviy jarayonlarga befarq, loqayd.

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild, -T.: "O'zbekiston", 1999. 297-bet.

Buyuk allomalarimiz qayd etganlari kabi insonni, pirovard natijada jamiyatni ma'rifat bulog'idan sug'orishning yo'li shaxsni ma'naviyat, ma'rifatga oshufta qilishdadir. Muammoga boshqacharoq munosabatda bo'ladigan bo'lsak, insonni va jamiyatni turli balo-qazolardan asrashning yagona yo'li qalbni davolash, uni sog'lomlashtirishdir.

Bu yo'lda mamlakatimizda mustaqillik yillarida misli ko'rilmagan katta hajmdagi ishlar bajarildi. Ma'naviyat, ma'rifat davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Muhimi, ushbu haqiqatning rasman e'lon qilinganida emas, balki bu narsaning fuqarolarimiz tomonidan e'tirof etib, tan olinganidadir.

Madaniyatning maqsadi, ijtimoiy funksiyalari o'zgardi. Agar avval madaniyat davlatning, hukmron siyosiy mafkuraning imperiyachilik maqsadlarini amalga oshirish vositasi sanalgan bo'lsa, endi u insonning mukammalligini ta'minlovchi, millatni birlashtiruvchi, uyushtiruvchi, yagona milliy manfaatga xizmat qiluvchi hodisaga aylandi.

Natijada ma'naviy-ma'rifiy sohada fuqarolarimiz orzu qilgan kunlarga yetdik. Milliy-madaniy, tarixiy merosimizni o'zimizga qaytarish imkoniga ega bo'ldik. Millatning mavjudligi uning madaniyatida aks etishi to'g'risidagi haqiqat tom ma'noda qaror toda boshladi. Milliy madaniyatimizning tiklana boshlashi bizning jahon maydonidagi o'rnimizni belgilashga ko'mak bera boshladi. Ushbu ijobiy jarayonlar silsilasida Yurtboshimizning «Bolalar musiqa va san'at maktablarining modsiytexnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009—2014 yillarga mo'ljallangan davlat dasturini tayyorlash choratadbirlari to'g'risida»gi farmoyishini alohida ta'kidlash lozim. Ta'bir joiz bo'lsa aytish kerakki, bu hujjat jamiyatni yanada ma'rifatparvarlashtirish, insoniy fazilatlarga ustuvor tavsif berish, inson qalbida ezgulik, yaxshilik, adolat tamoyillarini qaror toptirishga qaratilgan jiddiy qadamdir.

TTTu bilan birga dunyo tobora globallashib borayotgan, barcha sohalarda integratsiya jarayonlari avj olayotgan hozirgi davrda jamiyatimizning ayrim fuqarolarida, ayniqsa, yoshlar ongida kuchli tafakkuriy o'zgarishlar sodir etish o'ta dolzarb bo'lib qolmoqda. Ayrim yoshlarimizda egoizm, xudbinlik, jamiyat manfaatlariga bepisandlik kabi illatlarning mavjudligida g'arbning ta'siri kuchayib borayotganligini ham esdan

chiqarmaslik muhim, deb o'ylaymiz.

Bunday murakkab sharoitda yoshlar o'rtasida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarimiz samaradorligini oshirishdan ham muhimroq ish yo'q. Buning uchun, eng avvalo, yoshlarimizda o'z ma'naviy qiyofasini boyitishga imkon beradigan sog'lom ehtiyojni shakllantirish o'ta zarurdir.

Sog'lom ma'naviy ehtiyoj inson qalbini nurga, yaxshilik, ezgulikka to'ldiruvchi, unki yomon illatlardan himoya qiluvchi vosita hisoblanadi. Sog'lom ehtiyojni shakllantirish uchun esa, mavjud holatni tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lishimiz lozim. Bunday holatni aniqlash uchun esa, bizning nazarimizda, quyidagilarga e'tibor berish lozim.

Birinchidan, bugungi yoshlarimizning shaxs sifatkdagi maqomida qaysi sifatlar ustuvor ahamiyatga ega bo'lmoqda: moddiy boylikmi, amalga o'tirishmi, bilim olishmi, umumiy madaniy saviyani oshirishmi?

Ikkinchidan, yaratilgan ma'naviy ne'matlar — badiiy asarlar, kino-teatr asarlari, ommaviy axborot vositalari nashrlari yoshlarimizning qiziqishlarini o'rgangan holda taklif etilyaptimi?

Uchinchidan, davlat, hokimiyatning turli pog'onalarida, ayniqsa, quyi pog'onalarida yoshlarimizning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish, ularning ma'naviy qiyofasini shakllantirish yo'lidagi faoliyat hozirgi kun talabiga javob bera oladimi?

To'rtinchidan, bozor iqtisodiyoti munosabatlari tabiatidan kelib chiqqan holda jamiyatimiz fuqarolari madaniy saviyasini oshirishga ko'mak berish mumkin bo'lgan homiylik harakatidan qoniqish hosil qilish mumkinmi?

Jamiyat ma'naviy qiyofasini belgilashda, fuqaroning sog'lom ma'naviy ehtiyojini shakllantirishda, shak-shubhasiz, yuqoridagi savollarga berilg'an javoblar muhim ahamiyatga ega. Fuqaro ma'naviy ehtiyojini shakllantirish o'ta murakkab va ma'lum vaqtni talab etadi. Buning uchun, eng avvalo, shaxsda o'zini-o'zi rivojlantirishga moyillik bo'lishi lozim. Bu esa, ko'proq oila, mahalla, o'qiyotgan yoki ishlayotgan bilim yurti, muassasa, tashkilotdagi, umumiy tarzda aytadigan bo'lsak, jamiyatdagi o'rnak va ibrat masalasiga bog'liq. Bu birinchi masala.

Masalaning ikkinchi jihati yon-atrofimizda, dunyoning boshqa mamlakatlarida yoshlarga taqsim etilayotgan turli ma'naviy «ne'matlar» saviyasiga bog'liq.

Ma'lumki, «sadizm» iborasi fransuz yozuvchisi Markiz de Sad (1740—1814 yillar) nomi bilan bog'liq. Sadizmning ma'no-mohiyati — jinoiy buzuvchilik, yostiqdoshiga jismoniy azob yetkazilgan taqdirdagina to'la-to'kis huzur qilish, haddan tashqari shafqatsizlik, boshqalarning azoblanishidan huzurlanish demak. Tanikli adib M. Shohanov ta'kidlaganidek, de Sad asarlarida tasvirlangan ma'naviy qashshoqlik, ashaddiy shafqatsizlik manzaralari faqat la'natlashga loyiq. O'z onasini zo'rlagan murtad, qizini o'ziga o'ynash tutib, so'ng uning murdasini ovloq joyga eltib tashlaguncha yalab-yulqab borgan vosvos ota haqidagi parchalarni o'qishning o'zi ham azob. Shunday bo'lsada, de Sad kitoblarini o'qishga mushtok bo'lgan kitobxonlar juda ko'p¹.

Insonning go'zal fazilatlari, uning muqaddasligini ifoda etuvchi asarlar bilan birga uni kamsituvchi, yerga uruvchi ayrim «asarlar»ning yuzaga kelishi, shubhasiz, fuqaro ma'naviy ehtiyojini vulgarlashtiradi. Bosqinchilik, ur-yiqit, zo'ravonlikni muntazam ravishda «tomosha qiluvchi», «o'qiydigan» kishidan nimani ham kutish mumkin? Sog'lom ma'naviyat yomon odamni yaxshi odamga, yaxshi odamni esa go'zal xulqli insonga aylanishini ifoda etuvchi ma'naviy boyliklar asosidagina shakllanishi mumkin.

Muammoning uchinchi jihati ham bor. Shu narsa ma'lumki, fuqaroda, pirovard natijada, millatda o'zga shaxs va millatning ma'naviy «boyliklari»ni o'zlashtirishga, ularni «kult» darajasiga ko'tarishga moyillik holatlari mavjud. Buning uchun, avvalo, o'sha shaxs yoki millat madaniyati boshqalar madaniy taraqqiyotidan sustroq bo'ladi. Bo'lak tomondan esa shaxs va jamiyatda o'zini-o'zi rivojlantirishga bo'lgan harakat kam bo'ladi.

Ammo, o'zbek xalqi o'z milliy-madaniy taraqqiyoti bilan jahonda alohida hurmat va e'zozga ega bo'lgan xalq hisoblanadi. Bu — e'tirof etilgan aksioma. Ana shu milliy-madaniy boyliklarni xalqimiz ongishuuriga singdirish, ularning qalbiga jo etish asosida millat madaniy-ma'naviy qiyofasini shakllantirish mumkin.

Biz ko'pincha sog'lom ma'naviy ehtiyojni shakllantirish to'g'risida gapiramiz, uning zarurligi xususida o'z mulohazalarimizni beramiz — bu to'g'ri. Ammo yana shu ham ma'lumki, jahon amaliyotida sog'lom ma'naviy ehtiyojni shakllantirishning umume'tirof

¹ Aytmatov Ch., Shohanov M. Cho'qqida qolgan ovchining ohu zori. -T.: "Sharq", 1998. 128-bet.

etilgan yagona yo'li yo'q. Bunday ehtiyoj, bir tomondan millatning milliy-madaniy tarixiy merosi, jamiyat fuqarolarining mazkur merosga bo'lgan munosabati natijasida shakllansa, boshqa tomondan, davlatning milliy-madaniy merosga, uni fuqarolar tomonidan o'zlashtirishga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

Shu o'rinda bir misol keltirmoqchi edik: A. Chexov asarlari 146, A. Pushkin asarlari 89, N. Gogol asarlari 68, F. Dostoevskiy asarlari 46, A. Tolstoy asarlari 44 marta ekranlashtirilgan, ularning asarlari asosida badiiy filmlar yaratilgan ekan. Dunyoda asarlari eng ko'p ekranlashtirilgan adib U. Shekspir bo'lib, u 300 tani tashkil etarkan¹.

Albatta, yuqorida nomlari zikr etilganlarga mumtoz adiblar sifatida butun jahon, jumladan biz ham tan beramiz. Ayni paytda o'zbek xalqining boy madaniy, ilmiy merosini yaratgan, unga asos solgan olimu fuzalolarimiz, mutafakkirlarimiz to'g'risida, ular yaratgan boy ilmiy-madaniy meros haqida biz yosh avlodga berayotgan bilimlarimiz, ularni badiiy obrazlar orqali yetkazib berish darajamiz hozirgi kun talablaridamikin? Shu o'rinda yoshlarimizga ularning yosh, milliy xususiyatlari, qiziqishlarini e'tiborga olib, turli mavzularda qiziqarli kitoblar, badiiy, hujjatli asarlar nashr etsak, kino-filmlar yaratsak maqsadga muvofiq bo'lardi.

Qolaversa, biz yoshlarimizda sog'lom ma'naviy ehtiyojni shakllantirishimiz uchun ularga milliy-madaniy tariximiz haqida yetarlicha bilim, tasavvurlar berishimiz lozim. Masalan, Zarautsoy (Surxondaryo) qoyatosh suratlari yurtimizda bundan 14—15 ming yil avval ilk san'at asarlari paydo bo'la boshlaganligini, bu madaniyat jahonga mashhur Ispaniyaning Altamira, Fransiyaning Lyasko g'orlari devoriy suratlari qadrqimmatidan kam emasligini yoshlarimizga bildirishimiz sog'lom ma'naviy ehtiyojning tug'ilishiga qiziqish uyg'otmasdan krlmaydi. Bundan 5 ming yil ilgari ajdodlarimiz bronza metall eritish texnologiyasini o'zlashtirganlar. Mis va qalay yoki mis bilan qo'rg'oshin aralashmasidan bronza metali kashf etganlar. Bizning ajdodlarimiz sifatli bronza olish uchun mis bilan qo'rg'oshin aralashmasi 9:1 nisbatda, uni yaratish harorati 930—1030 daraja bo'lishini ming yillar ilgari bilganlar².

Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino o'rta asr musulmon Sharqida, xususan, O'zbekistonning hozirgi hududida 35 ta ilm yo'nalishi mavjudligini ta'kidlab, ularning

¹ "AIF". 2006, No 17.

² MirzaevT, ShirinovT. Buyuk tariximiz ko'zgusi. "Xalq so'zi", 2003- yil 2- aprel.

har biriga tavsif bergan¹.

Shu ma'noda bizning jamiyat a'zolari o'rtasida olib boradigan ishlarimiz, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarimiz o'z maqsad-muddaomizga yetkazyaptimi, ular sog'lom ma'naviy ehtiyojni shakllantirishga xizmat qilyaptimi — buni aniqlash juda muhim. Qolaversa, sog'lom ma'naviy ehtiyoj fuqaroda erkin tafakkur qilish, fikriy mustaqillikka erishishni ta'minlaydi. Bu haqda Yurtboshimiz I.A. Karimov shunday degan edi: «Bu o'rinda gap qandaydir targ'ibot-tashviqot haqida emas, balki odamlarning ko'zini ochib berish, ularning qalbi va ongida mustaqil fikr uyg'otish haqida bormoqda»².

Yurtboshimiz ta'kidlagani kabi, olib borayotgan targ'ibot-tashviqot, ma'naviy-mafkuraviy ishlarimiz aniq maqsadga yo'naltirilmas ekan, undan hech kim, hech qanday naf ko'rmaydi. Fuqaroning qiziqishi, xususiyatlari, yoshi va boshqa jihatlari e'tiborga olinib o'tkaziladigan har qanday tadbir bir tomondan, o'sha shaxsning sog'lom ma'naviy ehtiyojini shakllantirishga xizmat qilsa, boshqa tomondan, uning ma'naviy qiyofasini boyitishga, mustaqil shaxs sifatida tarbiya topishiga imkon beradi.

Darhaqiqat, barkamol inson tarbiyasi, ayniqsa yoshlar qalbida yaxshilik, ezgulik, millat va Vatanga mehr qo'yish sifatlarini shakllantirish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Bemaqsad, samarasiz yuzlab tadbirlardan bitta ma'nili suhbat yoki muloqotning ko'proq nafi tegishi mumkin. Buni barchamiz bilamiz. Biroq, tadbirlarimizning besamarligiga yana bir boshqa sabab borgan o'xshaydi.

Gap fuqarolarimizning, ayniqsa, yoshlarimizning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda, ular qalbida yaxshilikka oshnolik sifatlarini uyg'otishda mavjud vaziyatni yaxshi anglab yeta olmayotganligimiz haqida ketyapti. Shu o'rinda mamlakatimiz yoshlarining ma'naviy-mafkuraviy xaritasini yaratish maqsadga muvofiq bo'lar edi, deb o'ylaymiz. Ushbu shartli «xarita»da yoshlarimizning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, intilishlari, maqsadlari o'z ifodasini topgan bo'lishi muhimdir. Masalan, qaysi yoshda Alisher Navoiyni qanday talqin qilish haqida o'ylamas ekanmiz va uni keksayu yoshga bir xil tarzda «targ'ib-tashviq» etarkanmiz, unday asar bir toifa odamga bir xil, boshqalariga esa tamomila o'zgacha ta'sir etishi mumkin.

¹ Р.М Бахадиров R.M. Классификация наук и ее место в истории культуры мусульманского Востока(IX-XV bb). -Toshkent, 1998. 26-bet.

² KarimovI. Inson, uning xuquqi va erkinliklari oliy qadriyat. 14-tom. -T.: "O'zbekiston", 2006. 67-bet.

Yoshlar qalbi shakllanayotgan qalb xisoblanadi. Shakllanish jarayoni to'g'ri elgilanmas ekan, bunday vaziyatda insonning virtual dunyoga kirib qolish ehtimoli ko'p bo'ladi. Virtual dunyoda inson qalbida hali to'la anglab yetilmagan qandaydir g'ayriodatiy o'zgarishlar ro'y beradi, undaylarda turli tubanliklarga tushish erkinlik sifatida tahlil etiladi. Yana shu narsa ma'lumki, virtual dunyoda inson ma'naviy javobgarlikni xis etmaydi. Hattoki, mutaxassislarning ta'kidlashicha, virtual dunyo, uning zamonaviy axborot texnologiyalari bag'rida yaratilishi atom bombasining kashf etilishidan ham xavfli. Hozirgi sharoitda ayrim yoshlarimizning virtual dunyoga tushib qolishi, ularning real dunyodan ajralib qolayotganliklarining ikki sababi bor, deb o'ylaymiz: birinchidan, undaylar o'zining mustaqil ma'naviy qiyofasiga ega emas. Natijada «chetda»gi narsalar uni o'ziga tortadi, asta-sekin real dunyodan oyog'i uzilganini sezmay qoladi. Ikkinchidan, bunday toifadagi yoshlarda o'zini-o'zi rivojlantirishga ehtiyoj yo'q, shuningdek, bu narsa ularni moslashuvchanlik, ergashuvchanlik kayfiyatiga tushirib qo'yadi.

Yoshlarimizni virtual dunyoga tushib qolishdan asrash, ularning qalbini ezgulik, yaxshilik urug'lari bilan to'ldirish uchun, eng avvalo, bundaylarni margenallik holatidan chiqarish lozim. Margenallik — ayrim shaxs yoki guruhning jamiyatda muayyan ijtimoiy guruh, tabaqa, qatlamga mansub bo'lmasdan «chekkada», «oraliqsa» qolishidir.

Boshqacha so'z bilan aytganda, margenallik holatida u yoki bu shaxs «arosatda» qolishi mumkin. Jamiyat, oila, mahalla ta'siridan «chiqish esa margenallik holatiga tushgan shaxsda beparvolik, uquvsizlik, ijtimoiy hayotdan begonalashuvni yuzaga keltiradi. Bunday holatga tushgan shaxsning asosiy «xususiyatlari» jamiyat muammolariga e'tiborsizlik, sustlik, tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarga daxldorlik hissining susayishi, beqarorlikda ko'rinadi. Bundaylarning qalbi shikastlangan bo'ladi. Bunday shaxsning boshqalar ta'siriga tushish imkoniyatlari doimo yuqori bo'ladi. Ularning qalbini egallashda katta qiyinchilik sezilmaydi. Bu — jamiyat va millat uchun o'ta xavfli. Shuning uchun ham bizning ma'naviy-ma'rifiy faoliyatimiz ayrim yoshlarimizda mavjud bo'lgan margenallik holatini bartaraf qilishga qaratilishi lozim. Barkamol inson tarbiyasi alohida olingan, aniq bir shaxs tarbiyasi tufayli sodir bo'ladi. Tarbiyada aniqlik zarur. Agar biz tarbiyalanuvchining qalbini poklay olsak, unga

insonni sevis, hurmat qilish, e'zozlash urug'larini sepa olsak, shubhasiz, biz jamiyatning sog'lom ma'naviy qiyofasini yaratgan bo'lamiz, zero sharqda doimo moddiy olam ekan, shundagina mustaqillikning tom ma'nodagi qadr-qimmati, nufuzini tushunib yetishlari mumkin.

Qolaversa, xalq, ayniqsa, yoshlar tarixiy xotirasi millat ma'naviyatining asosiy bo'g'inlaridan biri xisoblanadi. Tarixiy xotirasi bo'sh xalq — kelajagi mavhum xalq. Tarixiy xotira va milliy ma'naviyat uyg'unligi kelajakni belgilab beruvchi, xalqni uyushtiruvchi, yagona maqsad ostida birlashtiruvchi kuchdir.

Millatimiz uzoq mustamlakachilik davrida og'ir qiyinchiliklarni boshidan kechirdi. Bizni turli baloyu qazolardan saqlab qolgan, yangi ezgu maqsadlar sari yetaklagan tuyg'u — tarixiy xotiradir. Biz o'z tariximizni o'rganishimiz, yutuqardan faxrlanishimiz, yo'l qo'ygan xatolarimizni takrorlamasligimiz uchun ham tarixiy xotira zarur. «O'tgan davr mobaynida, — deydi Yurtboshimiz, — eski tuzumdan og'ir meros bo'lib qolgan ana shunday illatlarga, elyurtimizga nisbatan kamsitish va milliy manfaatlarimizni mensimaslik holatlariga barham berish, ko'xna qadriyatlarimiz, dinu diyonatimizni tiklash, hayotimizda tarixiy adolatni qaror toptirish, yangi jamiyat qurish yo'lida xalqimizning ma'naviy yuksalishini o'z oldimizga qo'ygan olijanob maqsadlarga yetishda hal qiluvchi mezon deb qarash va shu asosda ish olib borish biz uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib kelganini va bugun ham e'tiborimiz markazida turganini ta'kidlash lozim»¹. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlar millatning aqlidroki, zakovatiga bevosita bog'liq. Mamlakat va xalq qudrati, eng avvalo, uning intellektual saloxiyati, aql kuchiga bog'liq. Bu — aksioma.

Agar biz o'zbek xalqining milliy-madaniy taraqqiyotiga nazar tashlasak, eng avvalo, uning fikr boyligi juda mustahkam ildizga, o'z an'analariga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun ham mamlakatimizda hozirgi kunda amalga oshirilayotgan istikloliy islohotlarning real kuchga aylanishi, shubhasiz, o'tmish madaniy merosimizni chuqur, har tomonlama o'rganishga bog'likligini sezishimiz mumkin.

«Falsafa» qomusiy lug'atida ta'kidlanishicha, arabcha «al-aql» — insonning ma'naviy-

¹ Karimov I.A. Yuksak manaviyat -yengilmas kuch. - T.: "Ma'naviyat", 2008. 6-7-betlar.

ruhiy faoliyatidagi barcha ashyonarsalar, hodisalarni qanday bo'lsa aynan shunday holda bilish qobiliyati, mavhum fikrlash va tushunchalar yaratish xususiyatidir. Umuman olganda, aql vaaqliy faoliyat tushunchalari Platon va Aristotel falsafasida keng ishlatilib kelingan. Ayni paytda O'rta asrlar davri Yaqin va O'rta Sharq falsafiy tafakkuri va unda shakllangan aql to'g'risidagi ta'limotlar Platon, Aristotel va Platonning falsafiy merosidan ta'sirlangan va shakllangan¹.

Albatta, aqlni G'arb yoki Sharqning alohida olingan tafakkuriy mahsuli sifatida talqin etish unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Aql har bir xalq, mintaqaning o'ziga xosligi, xususiyatlari, millatning xarakteri, tarixiy an'analari, milliy-madaniy merosining natijasi hisoblanadi. Bu jihatdan u lokal mazmunga ega.

Ammo aqlidrok masalasi yoki alohida olingan u yoki bu xalqning tafakkur tarzi keng ma'noda integratsiya jarayonlarini taqozo etadi va shu ma'noda u ayirboshlashuvni talab etadi. Shundagina u mukammal darajaga ega bo'lishi mumkin. Aks holda milliy aqlidrok masalasi mahdudlikka yuz tutishi mumkin.

Shu ma'noda o'zbek milliy-madaniy merosi va tafakkur tarziga qisqacha nazar tashlash foydadan xoli bo'lmaydi. Mamlakatimiz hududida ma'naviy-ma'rifiy va tafakkur g'oyalari, xalq og'zaki ijodiyoti, «Avesto»dagi milliy va umumbashariy g'oyalar mamlakatimiz va millatimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shilishida alohida ahamiyatga molik omillar hisoblanadi.

Ayni paytda islom ta'limotida, tasavvuf tariqatlarida aql-idrok masalasiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, uning yanada rivojlanishi Markaziy Osiyo xalqlari milliy-madaniy merosi bilan bevosita bog'liqdir. Shu ma'noda dunyo tamaddunida yurtimizda shakllangan aql-idrok va tafakkur omilining o'rni benihoya kattadir. Markaziy Osiyoda ilm-fan, aql-idrok, tafakkur dunyosining boyishi Sharq Uyg'onish davri bilan (IX—XVI asrlar) bevosita bog'liq ekanligini ham esdan chiqarmaslik lozim. Qolaversa, o'zbek xalqi milliy-madaniy merosida ma'rifatparvarlik va jadidchilik harakatining ham o'rni benihoya katta.

Umuman, Sharq, xususan, o'zbek milliy tafakkurida aql-idrok masalalariga e'tibor

¹ Falsafa. Qomusiy lug'at. Toshkent, 2004. 42-bet.

qaratgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, bir tomondan ushbu hududda an'anaviy tarzda sivilizatsion o'zgarishlar, boshqa tomondan uning turli xalqpar va mintaqalar bilan integratsiya jarayonlariga chuqur kirib borishi natijasida mamlakatimizda o'ziga xos tarzda milliy aql-idrok falsafasi va madaniy-tarixiy merosi yuzaga keldi. Uning xususiyatli jihatlari esa quyidagilardan iborat:

- ko'p ming yillik tariximiz davomida milliy aqlidrokning novatorlik xususiyati shakllandi, narsa va hodisalar mohiyatini o'rganishda an'anaviylik usuli ishlab chiqildi;
- milliy aql-idrok falsafasining taraqqiyoti har doim eskining to'liq inkor etilishi asosida emas, aksincha, uning ijobiy jihatlari yangi zamonga olib o'tish, eskining ijobiy jihatlari nazariyot va amaliyotda foydalanishga moyillik kayfiyatida ro'y berdi;
- o'zbek milliy mentaliteti, xalqning madaniy taraqqiyoti diniy va dunyoviy ta'limotlar ustunligida shakllanganligini ham esdan chiqarmaslik muhimdir. Bunday uyg'unlik u yoki bu hodisa, voqeaga baho berish, masalaning mazmun-mohiyatini aniqlashda sub'ektiv xulosalar chiqarishga imkon bermagan. Shu asnoda dunyoviy va diniy bilimlarni rivojlantirish bir yoqlamalikning oldini olgan, to'g'ri tafakkur tarzini shakllantirishga sharoit yaratgan;
- milliy-madaniy merosimizda asosiy e'tibor yangi likka intilish asosida yuz berdi. Buning uchun yurtimizda zarur shart-sharoitlar mavjud bo'lgan. O'zbekistonning jahonning muhim geopolitik makonida joylashganligi, Buyuk Ipak yo'lining asosiy qismi mamlakatimiz hududidan o'tganligi — bularning bari biz uchun qulay imkoniyatlar bergan.

O'zbek xalqining Sharq olamida tutgan novatorlik o'rni uning asrlar davomida yaratgan intellektual-aqliy boyligi va yuksak milliy-madaniy, an'anaviy merosi bilan belgilanadi. «Avesto», O'rxun-Enisey yodgorliklari, Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarlari, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiyoti — bularning bari yuqoridagi fikrimizning dalil-isbotidir.

Ayniqsa, o'zbek xalq og'zaki ijodiyotida, xususan, qo'shiqchilik san'atida kishilarni aql va farosatga undovchi, uning tafakkur tarzini shakllantirishga qaratilgan

jihatlari juda ko'p bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Xalqimizning «Xo'p hayda», «Dali daryo», «Ayrildim», «Munojot», «Bayot», «Ushshoq», «Qora ko'zim», «Shashmaqom» singari uzoq tarixga ega bo'lgan qo'shiqdari, «Ro'molim», «Ayajon», «Yor-yor», «O'lan», «Alla» kabi lirikasi, «Olma deb otgan otam», «Farang ro'mol boshimda», «Bog' aylanib chiy tutdim», «Gulni gul dermu kishi», «Qoshi qaro barno yigit» nomli shingil qo'shiqdari o'zining latofati, jozibadorlig'i bilan asrlar davomida yashab kelmoqda, kishilarni aql-farosat bilan ish tutishga undamoqda¹.

Turkiy xalqlar azaldan jahon ayvonida o'ziga xos o'rin tutganlar, aql-farosat bobida haddan tashqari nozik didli va o'ta ziyrak bo'lganlar. Ayniqsa, Kultegin, Bilga Xoqon, Ungin, Kuli Chur, Moyun Chur, To'ng'oquq bitiglarining ahamiyati kattadir. Jumladan, Bilga Xoqon turk xalqining Vatani abadiy bo'lishi uchun kurashdi. Vatanni saqlab qolish faqat Xoqonning o'ziga emas, xalqqa ham bog'liqsir. Bilga Xoqon xalq o'z hukmdorining yo'l-yo'riqlarini amalga oshirishi lozim, aks holda uning boshiga ko'p kulfatlar kelishini ta'kidlab, kishi o'ta ishonuvchan bo'lmasligi, boshqalarning gapini mulohaza qilgandan keyin ish yuritishi lozim, deydi. U odamni ajrata bilmay, to'kis ishonuvchan bo'lsa, fojiaga yo'l ochiladi, darbadarlik shundan boshlanadi, deb uqtiradi².

Mulohazali bo'lish, yaxshi bilan yomonning farqini bilishga intilish har bir kishining aqli mahsuli ekanligiga islom dini, uning muqaddas kitobi Qur'oni karim, xadislari ham ishora qilgan. Jumladan, hadislarni to'plash, umumlashtirish, ularning kishilar aqliy tarbiyasidagi o'rnini aniqlash yurtimizda doimo savobli va muqaddas ish xdooblangan. Yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk hadisshunos olimlarning bu boradagi faoliyati, ayniqsa, ibratlidir. Masalan, Muhammad al-Buxoriy 660 ming hadisdan faqat 7250 tasinigina to'plamga kiritgan. Ushbu hadislar odamlarni aql-farosatga, yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishga undaganligi bilan ham qadrlidir.

Aloxida ta'kidlash lozimki, yurtimizda dunyoviy bilimlar nihoyatda gurkirab rivojlangan. Shu o'rinda, ayniqsa, mashhur astronom va matematik Ahmad Farg'oni, y,

¹ Boboev X., G'ofurov Z. O'zbekistonda siyosiy va ma'naviy - marifiy ta'limotlar taraqqiyoti.- T.: "Yangi asr avlodi", 2001. 51-bet.

² Raximov A. Turk xoqonligi. -T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashryoti, 1993. 72-bet.

Muhammad Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sinolar tomonidan qoldirilgan boy ilmiy, falsafiy merosni alohida qayd etish lozim. Manbalarda «Al-faylasuf atturkiy» deb nomlangan Forobiy o'z ilmiy-ijodiy faoliyati davomida 160 dan ortiq asarlar yaratgan. Xorazmlik Abu Rayhon Beruniyning «O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar» asarida yozma, xalq og'zaki ijodi namunalari o'z aksini topgan. Uning 150 dan ziyod asarlari o'zbek xalqining muqaddas ilmiy, intellektual salohiyatidan darak beruvchi merosdir.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, ilm-fanning rivojlanishi ko'p jihatdan to'g'ri tanlangan yo'lga bog'liq. Tarixiy voqea, hodisalarga hissiyot bilan yondoshish ko'pincha xato xulosaga olib kelishi mumkinligini, to'g'ri natija aqlning mahsuli bo'lishi mumkinligini qayd etgan holda Beruniy shunday deydi: «Asarni yozishga (kirisha) boshlab, aytamanki, mendan so'ralgan narsaga yetkazuvchi vositalarning eng muximi — qadimgi millatlar avlodidan va ularning rasmu rusum va qoidalaridan iboratdir. aqliy (narsalardan) dalil keltirish, kuzatilgan (narsalarga) qiyos qilish yo'li bilan u xabarlarni bilib bo'lmaydi. Buni faqat «kitob axllari» va turli din arboblari, shu (e'tiqodlarga) amal qiluvchi har xil maslak va ishonch egalariga erishish, ularning tushunchalarini kishilarning tabiatini pastkashlashtiradigan yomon axlokdan, haqiqatni ko'rishga imkon bermaydigan omillardan o'zini tozalagandan keyin, ularning isbot uchun keltirilgan so'z va e'tiqodlarini bir-biriga solishtirish bilan bilinadi. Ana shu aytib o'tganim haqiqiy maqsadga yetkazuvchi eng yaxshi yo'l va bunga dog' tushiruvchi shak-shubhani yuvib tashlash uchun eng kuchli yordamchidir. Garchi qattiq urinib zo'r mashaqqat cheksak ham o'shandan boshqa yo'l bilan maqsadga erisha olmaymiz»¹.

¹ Beruniy. Tanlangan asarlar. 1- tom. -T.: "Fan", 1963. 40-41-betlar.

Xulosa

O'zbek xalqining ilmiy-falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy merosi jahon sivilizatsiyasining muhim o'zaklaridan biri xisoblanadi. Sharq Uyg'onish davri, ayniqsa, Markaziy Osiyoda ilm-fan, madaniyat, san'atning, dunyoviy va diniy bilimlar uyg'unligining eng yuksak cho'qqisi hisoblanadi. Mohiyatni aniqlashga, haqiqatni anglashga intilish tufayli ilm-fanning deyarli barcha sohalarida jiddiy sifat o'zgarishlari sodir bo'ldi. Shu o'rinda bir ibratli misolni keltirish diqqatga sazovordir: buyuk olim Abu Ali ibn Sino o'z davrida fanni klassifikatsiya qilish, tartibga solish bilan ham jiddiy shug'ullandi. Bu borada, ayniqsa, uning aqlga asoslangan fan qismlariga oid maxsus traktati nihoyatda qimmatlidir. Unga binoan Abu Ali ibn Sino o'rta asr musulmon Sharqida shakllangan 35 ta fan sohasiga tavsiflar beradi¹. Bu fanlarning aksariyat qismi Markaziy Osiyo, xususan, hozirgi O'zbekiston xududida shakllanganligini butun dunyo allaqachon e'tirof etgan.

Inson tarbiyasi, uning aql-idroki, farosatini rivojlantirish masalalari o'tmish badiiy adabiyotida ham alohida o'rin egallagan. Xususan, YUsuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarining o'rni beqiyosdir. 1069—1070 yillarda yozilgan mazkur asar falsafiydidaktik asar bo'lib, 73 bobdan iborat. Asarda bir tomondan mamlakatni siyosiy jihatdan jipslashtirish, Qoraxoniylar davlatining iqtisodiy asoslarini mustahkamlash vazifasi olg'a surilgan bo'lsa, boshqa tomondan mamlakat aholisini o'zaro ittifoqqa undash, eng yaxshi insoniy xislatlarni targ'ib qilish, shoir sifatida qalbaki hayajonga solayotgan masalalarni o'rtaga qo'yish ham turadi.

Shuningdek, asarda inson aql-zakovati masalalari, bilim olish muammolariga alohida ahamiyat berilgan. «Bilig uqush adrimin, asg'in ayur» («Bilim o'quv-idrok farqini, nafini aytadi») deb nomlangan va bilim haqidagi maxsus bobda Yusuf Xos Hojib bilimsizlik qorong'i zulmatga, bilim esa shu zulmatni yorituvchi masHalaga o'xshatadi. Bilimning asosiy xususiyati kishi uchun foydali ekanligida, unga qadr-

¹ Р.М Бахадиров Классификация наук и ее место в истории культуры мусульманского Востока(IX-XV bb). Toshkent, 1998. 26-bet.

qimmat, hurmat va ehtirom keltirishida, deb biladi¹.

Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, mamlakatimizning uzoq ming yilliklar tarixida ilm-fan doimo millat, uning taqsiri uchun ustuvor ahamiyatga ega hodisa bo'lgan. Erklik, ozodlik davrlarida ilm-fan taraqqiyot, ijtimoiy rivojlanishning omili bo'lganidek, mustamlakachilik davrlarida ham ushbu fenomenga millatni qutqaruvchi, uni birlashtiruvchi, ergashtiruvchi kuch sifatida qaralgan.

Turkistonni mustaqil davlat sifatida ko'rish, xalqimizni dunyo xalqlari orasida erkli, ozod ko'rish tuyg'usi ma'rifatparvarlik va jadidchilik harakatini yuzaga keltirdi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, So'fizoda, Tavallo kabi xalqimizning o'nlab, yuzlab fidoyilari ilm-fan, ma'naviyat-ma'rifat uchun kurashdilar.

Ayniqsa, ilm-fan, inson salohiyati, tafakkur tarzini o'zgartirish, shu orqali millatni uyg'otish, yaxshi va yomon, yorug'lik va zulmatni farklash ko'nikmasi, tajribasini hosil qilish jadid adabiyoti namoyandalarining eng muhim vazifasi sanalgan. A. Avloniyning ta'kidlashicha: «Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdir, zero ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur. Savobni gunohsan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurib berur. To'g'ri yo'lga raxnamolik qilub, dunyo va oxiratda mas'ud bo'lishimizga sabab bo'lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kavidur... Ilmning foydasi u qadar qo'pdirki, ta'rif qilg'an birla ado qilmoq mumkin emasdur. Bizlarni jaholat, qorong'ulikdan qutqarur, madaniyat, insoniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzug' ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va odob sohibi qilur»².

Mustaqillik yillarida ilm-fanga, uning jamiyat va millat hayotidagi o'rnini oshirishga alohida e'tibor berilmoqsa. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagi «Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori juda ahamiyatli bo'ldi. Qarorda mamlakatimizda juda kuchli

¹ To'xliievB Bilim - ezgulik yo'li. -T.: "Fan", 1990. 23-bet.

² Avloniy A. Turkiy guliston yoki axloq.- T.: "O'qituvchi", 1967. 34-bet.

intellektual salohiyat jonlanganligi, undan samarali foydalanish mamlakat va millat ravnaqida ta'sirli kuch ekanligi yana bir bor eslatib o'tildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar :

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. T. 1997.
2. O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: "Fan". 2003.
3. 2012-yil 16-17- fevral kunlari Toshkentda o'tkazilgan konferensiya ma'lumotlari: "ma'lumotli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash - mamlakatni barqaror rivojlantirish va zamonaviylashtirishning eng muhim sharti sifatida". Virtual kutubxona.uz
4. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: "Sharq". 1997.
5. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T.: Sharq, 1998.
6. Karimov I. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild, T.: "O'zbekiston", 1999.
7. Karimov I. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - piravard maqsadimiz. -T.: "O'zbekiston", 2000.
8. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - Toshkent, 1998.
9. I.Karimov. Vatan sajdagoh kabi kabi muqaddasdir, 3jild.- T.: "O'zbekiston", 1999.
10. Karimov I. Inson, uning xuquqi va erkinliklari oliy qadriyat. 14-tom. -T.: "O'zbekiston", 2006.
11. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. -T.: "Sharq" 1998.
12. Karimov I. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent, 2008.
13. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq.- T.: "O'qituvchi", 1967.
14. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar - Toshkent, 1991.
15. Abdullaev N. San'at tarixi. - Toshkent, 1980.
16. Mavrulov A. Ma'naviy barkamol inson tarbiyasi. - T.: "O'zbekiston". 2008.
17. Boboyev H, G'ofurov Z. O'zbekistonda siyosiy va ma'naviy-marifiy ta'limotlar taraqqiyoti. - T.: "Yangi asr avlodi". 2001.

18. Iskandarov B. O'rta Osiyoda falsafiy va ijtimoiy-siyosiy fikrning shakllaninishi va rivojlanishi tarixidan lavhalar. - Toshkent, 1993.
19. Yangi va eng yangi G'arbiy Evropa falsafasi. - Toshkent, 2002.
20. To'xliiev B. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari. - Toshkent, 1991.
21. Mustaqillik. Izohli ilmiy - ommabop lug'at. - Toshkent, 2006.
22. Falsafa. Qomusiy lug'at. - Toshkent, 2004.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev J.F., Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya asoslari. -T.: "O'qituvchi". 2004.
2. Tolipov O'.Q., Usmonaliyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. -T.: "Fan". 2006.
3. Hasanboyeva O' va boshqalar. Pedagogika tarixi. -T.: "G'afur G'ulom". 2004
4. O'zbekiston respublikasi fanlar akademiyasi tarix instituti. Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining g'oyaviy asoslari. -T.: "Sharq". 2001.
5. O'zbekistonda ijtimoy fanlar, 1969. 8-9 sonlar.
6. Uzoqov H. O'zbekistonda mustaqillik uchun kurash tarixi (1900-1940-yillar). - Toshkent, 1996.
7. Tarix shohidligi va saboqlari. - Toshkent, 2001.
8. O'zbek adabiyoti tarixi. - Toshkent, 1997.
9. Pedagogika tarixidan xresotomatiya. - Toshkent, 1993.
10. To'xliiev B Bilim - ezgulik yo'li. -T.: "Fan", 1990

Internet saytlari :

1. Uzvip.uz
2. Forum.ziyouz.com.
3. Library.tuit.uz.
4. Sovminrk.gov.uz
5. Natib.infolib.uz
6. Uznews.net.
7. Wikipedia.uz
8. Virtual kutubxona.uz

Ilovalar

Glossariy

Ekstremizm (lotincha "extremus" - o'ta) - ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal etishda o'ta keskin chora - tadbirlarni, fikr qarashlarni yoqlovchi nazariya va amaliyot.

Erkinlik - kishilar faoliyati bilan tabiat va jamiyatning ob'ektiv qonuniyatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatni ular o'rganishi asosida faoliyat olib borish va hayot kechirish zarurligini ifodalovchi tushuncha.

Etnosentrizm (yunoncha "ethnos" - guruh, qabila, xalq; lot. "centrum" - markaz) - alohida shaxs va ijtimoiy guruh tomonidan ijtimoiy hayot hodisalarini muayyanetnik birlik nuqtaiy nazaridan baholanishi.

Yurt tinchligi - milliy istiqlool mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri, mamlakat barqarot taraqqiyotining asosiy sharti. Tinchlik - insonning hayotiy ehtiyoji, emin-erkin yashashi va kamol topishining eng zarur omilidir.

O'zbek millatining o'z-o'zini angalashi - xalq o'zini haqiqiy mavjud subekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarning ifodalovchisi, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlarga mansubligini, manfaatlar va ehtiyojlar umumiyligini tushunib etish jarayonida shakllandi.

O'zbek tili - o'zbeklarning tili. Bu tilda so'zlashuvchilarning umumiy soni yigirma million bilan yigirma besh million orasida bo'lib, ularning asosiy qismi O'zbekistonda va unga chegaradosh bo'lgan mustaqil davlatlarda yashovchi o'zbek tilida so'zlashuvchi va o'zini o'zbek deb biluvchi aholi tashkil qiladi.

O'zbekiston - "O'zbekiston Respublikasi" va "O'zbekiston" iboralari bir ma'noga ega. O'zbekiston - Markaziy Osiyoning o'rta qismida joylashgan mustaqil davlat.

"O'zbekiston - Kelajagi Buyuk Davlat" - Islom Karimov tomonidan nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan bunyodkor g'oya.

Mundarija

Kirish.....3-9 betlar

I bob. Madaniy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etish va uning shaxs mafkurasini shakllantirishdagi o'rni.

1.1.Madaniy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning meyoriy asoslari.....10-30 betlar

1.2. Sog'lom mafkurali inson shaxsiga qo'yiladigan talablar tasnifi.....31-46 betlar

II bob. Shaxs mafkurasini to'g'ri shakllantirish va tarbiyalashning pedagogik talqini.

2.1. Jamiyatdagi turli mafkuraviy taxdidlarning shaxs taraqqiyotiga ta'siri.....47-59 betlar

2.2. Ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashning pedagogik mezonlari.....60-74 betlar

Xulosa.....75-77 betlar

Adabiyotlar ro'yhati.....78-81 betlar

Ilovalar.....82 bet